Raxmatova N.D.

# XOR VA XORSHUNOSLIK

O'quv qo'llanma

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

**Raxmatova N.D.**

# XOR VA XORSHUNOSLIK

**O‘quv qo‘llanma**

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 100000 – Gumanitar |
| **Ta`lim sohasi:** | 110000 – Pedagogika |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 5111100 – Musiqa ta’limi |

Toshkent-2022

## ANNOTATSIYA

Mazkur o'quv qo'llanma oliy ta'lim muassasalarining "Musiqa ta'limi" yo'nalishi bakalavriat bosqichi uchun mo'ljallangan. O'quv qo'llanmada xor san'atining kelib chiqish tarixi va rivojlanishi, xor tarkibi va turlari, kuylash nafasi, xor sozi, ansambl, diktsiya, bolalar xorining yosh xususiyatlari, o'quvchilarning musiqiy qobiliyati va ovozini aniqlash usullari, o'zbek va horij kompozitorlarining xor uchun yaratgan asarlari, shuningdek, o'quv jarayonida talabalarning mustaqil bilish faolligini rivojlantirishga qaratilgan o'quv topshiriqlari keltirilgan.

## АННОТАЦИЯ

Данное учебное пособие предназначено для бакалавриата высших учебных заведений по направлению "Музыкальное образование". В учебном пособии представлена история возникновения и развития хорового искусства, состав и виды хоров, певческое дыхание, хоровой строй, ансамбль, дикция, возрастные особенности детского хора, музыкальные способности и методы определения голоса учащихся, произведения узбекских и зарубежных композиторов для хора, а также учебные задания, направленные на развитие самостоятельной познавательной активности учащихся в процессе обучения.

## ANNOTATION

This textbook is intended for undergraduate students of higher educational institutions in the direction of "Music education". The textbook presents the history of the emergence and development of choral art, the composition and types of choirs, singing breathing, choral system, ensemble, diction, age characteristics of the children's choir, musical abilities and methods of determining the voice of students, works by Uzbek and foreign composers for the choir, as well as educational tasks aimed at the development of independent cognitive activity of students in the learning process.

# KIRISH

Jamoa bo'lib kuylash umumiy o'rta ta'lim maktabi sharoitida yosh avlodni musiqiy-estetik tarbiyalashning asosiy shakli bo'lib, shaxsning musiqiy madaniyatini rivojlantirishga, bolalar va yoshlarning yuksak badiiy didini shakllantirishga yordam beradi. Bolalarni to'g'ri va chiroyli kuylashga o'rgatish, shu bilan birga o'ziga va atrofdagilarga quvonch ulashish bo'lajak musiqa o'qituvchisining asosiy vazifalaridan biridir.

Xor san'ati inson shaxsini shakllantirishda hamda yuksak ahloqiy sifatlarni mujassamlashtirishda, uning ma'naviy olamini yetuklik darajasiga ko'tarishda ahamiyati kattadir.

Xor va xorshunoslik kursining asosiy maqsadi talabalarda musiqiy dunyoqarashni kengaytirish, xor san'atining paydo bo'lishi va rivojlanish tarixi, xor tarkibi va turlari, xor ovozlarining tasnifi, ularning diapazoni va registrlarini, kuylash nafasi, bolalar xorining yosh xususiyatlari, shuningdek, O'zbekiston va xorij kompozitorlarining turli davrlarga xos, xor uchun yaratilgan musiqiy asarlari bilan tanishtirish hamda mazkur asarlarni o'rgatish, umumlashtirib aytganda xor bilan amaliy ishlashga tayyorlashdan iboratdir. Bunda xorshunoslikning ob'ekti xor san'atining nazariy asoslari bo'lib, unda xor jamoasini tashkil etish va uni boshqarish usullari o'rganiladi.

Musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida "Xor va xorshunoslik" fani katta ahamiyatga ega. Xorda kuylash jarayonida talabada vokal madaniyati ko'nikmasi rivojlanib boradi. Amaliy mashg'ulotlar jarayonida talabalarda jamoa bo'lib kuylash, qo'shiqchilik, xor rahbari kabi ijodiy faollik rivojlanadi. Bo'lajak musiqa o'qituvchilari bilan xor san'ati va xor bilan ishlash amaliyotini olib borish juda muhim. Chunki umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi musiqa madaniyati darslarida jamoa bo'lib kuylash o'quvchilarning yetakchi faoliyati sifatida ajralib turadi.

O'qituvchi-musiqachining o'zi o'z xorini yaratadi, xor qo'shiqchilarini o'qitadi, ijro faoliyatini tashkil qiladi. Bunday ko'p qirrali faoliyat musiqa o'qituvchisidan xor san'atining rivojlanish tarixi, xor ijrosi nazariyasi va tarixi,

vokal-xor metodikasi asoslarini o'z ichiga olgan keng kasbiy bilimlarga ega bo'lishni talab qiladi.

Mazkur o'quv qo'llanma oliy ta'lim muassasalarining "Musiqiy ta'lim" yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, ushbu qo'llanmada xor ijrochiligining rivojlanish tarixi, bolalar xor jamoasi bilan ishlashni tashkil etish bo'yicha amaliy maslahatlar bilan birgalikda bolalar ovozini rivojlantirish bo'yicha ba'zi nazariy savollarni ilmiy nuqtai nazardan yoritishga harakat qilingan.

Xor janrlarini shakllanishi va rivojlanishi, ijrochilik an'analari va uslublari bilan bog'liq masalalarni, oldingi davrlar va hozirgi zamonning badiiy qarashlarini o'rganish kelajakda yosh mutaxassislarga musiqiy va pedagogik faoliyati bilan bog'liq zamonaviy muammolarni professional ravishda hal qilishga yordam beradi.

O'quv qo'llanma uch bobdan iborat. Birinchi bobda G'arbiy Yevropa xor san'atining kelib chiqish tarixi va rivojlanishi hamda O'zbekistonda xor ijrochiliginig rivojlanish bosqichlari yoritilgan.

Ikkinchi bobda xor ijrochiliginig nazariy asoslari, xorda kuylash jarayonida ijro jarangiga, ansambl, yaxshi soz, nafas olish, hamohanglikka hamda diktsion ravshanlikka erishish, badiiy ifoda vositalaridan o'z o'rnida foydalanish, qo'shiq aytishni o'rganish jarayonida yosh jihatidan bolalar ovozini rivojlantirishning turli jihatlari bilan bog'liq nazariy masalalar yoritilgan.

Shuningdek, har bir bobda o'rganilgan mavzu bo'yicha nazorat savollari, o'quv jarayonida talabalarning mustaqil bilish faolligini rivojlantirishga qaratilgan o'quv vazifalari hamda kalit so'zlar va terminlar keltirilgan.

Uchinchi bobda xor uchun qayta ishlangan o'zbek hamda qardosh xalqlar qo'shiqlari, shuningdek, o'zbek va horij kompozitorlarining xor uchun yaratgan asarlarini nota matnlari keltirilgan.

# I BOB
# XOR SAN'ATINING KELIB CHIQISH TARIXI VA RIVOJLANISHI

## Qadimiy davrning xor san'ati

Qadimgi davrning xor san`ati qadimgi dunyo xalqlarining ijtimoiy munosabatlari va dunyoqarashining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Hayotning o'zi qo'shiq ijodining muayyan janrlarini, badiiy shakllar va ifodali vositalarni yaratishga sharoit yaratdi. Turli xalqlarning xor san`atini rivojlanishida qadimiy davr xor san'atining yo'nalishlari va janrlarini turli mamlakatlarda shakllanishida bir xil ahamiyatga ega bo'lgan bazi umumiy omillar mavjud. Barcha xalqlarning kundalik hayoti, mashaqqatli mehnati qo'shiq ijodini yaratishga olib keldi. Mehnat qo'shiqlari ibtidoiy insonning mehnat faoliyati bilan bevosita aloqadorlikda vujudga kelib, ana shu jarayonda taraqqiy etgan. Quvonch va qayg'u bilan to'lgan kundalik hayot har bir xalqni hayot tarzining o'ziga xos xususiyatlarini bevosita aks ettiruvchi maishiy va marosim qo'shiqlarini yaratishga olib kelgan. Diniy ibodat bilan bog'liq bo'lgan kohinlar va ibodatxonalar marosimlari uchun yaratilgan qo'shiq janrlari turli mamlakatlarning professional xor san'atining kelib chiqishiga zamin yaratdi.

Qadimgi dunyoning xor madaniyati ko'plab mamlakatlarda yuqori darajadagi rivojlanishga erishdi. Misrliklar o'z davlatining farovonligi va gullab-yashnashiga bog'liq bo'lgan tabiat kuchlarini ilohiylashtirgan. Misrliklarning eng go'zal qo'shiqlari nafaqat o'z mamlakatining buyukligi va go'zalligining ramzi, balki Misr yerlarining unumdorligining asosiy manbai hisoblangan "Nila" sig'inish marosimi bilan bog'liq bo'lgan. Misrliklar professional musiqasining kelib chiqishi diniy ibodat bilan bog'liq bo'lgan kohinlar va ibodatxonalar marosimlari qo'shiqlari va madhiyalariga borib taqaladi. Ushbu qo'shiqlarning ohanglari yozilmagan, lekin qo'shiqchilar avloddan avlodga og`zaki tarzda o'tib kelgan. O'sha davrlarda xor jamoasi maxsus qo'l harakati tizimi yordamida boshqarilgan, keyinchalik bu tizim *heyronomiya* nomi bilan madaniy dunyoga tarqaldi.

Qadimgi Falastinda xor san'ati yuqori darajaga erishdi. O'sha paytda mavjud bo'lgan qo'shiq janrlari orasida psalom (diniy qo'shiqlar yoki oyatlardan biri) lar keng tarqaldi.

Keyingi davrlarda g'arbiy Yevropa musiqa san'atining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan qadimgi Yunonistonning musiqiy madaniyati o'rganish uchun alohida e'tiborga loyiqdir. Musiqa yunonlar hayotida muhim rol o'ynagan va xor san'ati, qadimgi Yunonistonning umumiy madaniy muhiti kontekstida ustuvor ahamiyatga ega edi. Xor ijrochiligi ijtimoiy ahamiyatga ega tadbirlarni, shu jumladan sport musobaqalarining musiqiy rasmiylashtirish asosini tashkil etar edi. Xor ijrochiligiga yosh avlodning ta'lim va tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralgan.

Qadimgi Yunonistonning xor san'ati bir ovozli bo'lgan. Xalqning shaxsiy va ijtimoiy hayotida mavjud bo'lgan turli marosimlarda jamoa bo'lib kuylangan. Yunonlarning eng sevimli marosimlaridan biri nikoh marosimi edi. Ushbu marosimda ijro etiladigan qo'shiqlar orasida epifalamiya - to'y qo'shiqlari markaziy o'rinda bo'lib, ular ko'pincha yigit va qizlar tomonidan navbatma-navbat ijro etilgan. Xor musiqasida ko'p janrlarning yuzaga kelishi qadimgi yunonlar hayotidagi boshqa muhim voqealar, xususan, sport musobaqalari bilan bog'liq. Masalan, epinikiya odalari turli sport turlari bo'yicha g'oliblar sharafiga ijro etilardi: Olimpiya-Zevs sharafiga, Pythian-Delfidagi Apollon sharafiga, Nemean-Zevs sharafiga. Bayram tantanalarida ko'pincha bir nechta xorlar ishtirok etgan, ular biron bir asarni navbatma-navbat ijro etgan.

Qadimgi Yunonistonda yakka vokal asarlarini shoir-bastakorlarning o'zlari ijo etganlar. Ular o'z asarlarini kifara, avlos, lira kabi cholg'ular jo'rligida ijro etganlar. Ayrim ijrochi-bastakorlarning ismlari bizgacha yetib kelgan: Terpandr, Ctexizor, Kleomen, Ksenokrit.

Qadimgi yunon hayotida diniy ibodatlar, shu jumladan kohinlar tomonidan amalga oshiriladigan zarur marosimlar katta ahamiyatga ega edi. Shu bilan birga, xor bo'lib kuylash muhim tarkibiy qism hisoblanardi. Adabiy manbalarga ko'ra, ko'pincha ruhoniylarning vazifalari ayollar yoki qizlarga yuklatilgan. Bayramlarda turli xorlar ishtirok etgan. Bunday tadbirlarda ayollar va qizlar xori alohida rol

o'ynagan. Ayollar va qizlar gulchambarlar ko'tarib olib, sevgi va tabiatning hayotbaxsh kuchini tarannum etuvchi madhiyalarni kuylashgan.

Yoshlarni tarbiyalashda xor ijrochiligi juda muhim bo'lgan. Insonning axloqiy dunyosiga ta'sir qiluvchi musiqa, yoshlarning xarakterini tarbiyalash va hatto tuzatishga, ularning ruhiy kayfiyatini shakllantirishga qodir deb hisoblangan. Bunday pedagogik qarashlardan so'ng xor ijrochiligiga ta'limning muhim elementlaridan biri sifatida qaralgan.

Yigit-qizlarni o'qitish va tarbiyalash alohida-alohida amalga oshirilgan. O'smirlarning ta'lim tizimi gimnastika asosida qurilgan, she'riyat bilan birgalikda kuylash va cholg'u musiqasi esa ularning ruhini tarbiyalashga undagan.

Qizlar uchun maxsus maktablar mavjud edi. Ularda yosh qizlar she'riyat, san'at, qo'shiq aytish, musiqa asboblarini chalishni, raqsga tushishni o'rganar edilar. Qizlar uchun taniqli va hurmatga sazovor o'quv yurtlaridan biri shoira Sapfo tashkil etgan miloddan avvalgi V asrda Lebsos orolidagi maktab edi. Shoira o'z o'quvchilariga diniy, nafis san'at asoslari, eng muhimi, kelajakdagi nikohni, rafiqa, uy bekasining vazifalarini bajarishi uchun tayyorlagan. Shu bilan birga, xor ijrochiligi boshqa san'atlar bilan bir qatorda maktab hayotining ajralmas qismi bo'lgan.

Qadimgi yunon fojia (tragediya) sida xorning roli muhim bo'lgan. Qadimgi Yunonistonda uchta asosiy dramatik janrlar - satira drama, fojia va komediya yuzaga kelgan. Dramatik janrlar, asosan – fojia tufayli qadimgi Yunonistonda, kuylash ovozining aniq tasnifi yuzaga keldi: netoide - virtuoz va yakka kuylashga xos bo'lgan yuqori ovoz: mesoide - xorlarda va qo'shiq kuylashga xos o'rta ovoz; iratoide - fojia ijrochilariga xos bo'lgan pastki ovoz.

Qadimiy yunon fojialari ijodkorlari: Esxil, Sofokl, Evripid, shuningdek qadimgi yunon komediya ustasi Aristofan.

Qadimiy madaniyat o'choqlaridan biri bo'lgan O'rta Osiyoda yashagan xalqlar jahon fan va madaniyatining rivojiga ulkan hissa qo'shganlar. Ushbu xududda so'nggi vaqtda olib borilgan arxeologik qazilmalar, tarixiy tekshiruvlar, o'tkazilgan ilmiy izlanishlar bu xalqlarning qadimgi davrlardan boshlab yuksak madaniyat egalari bo'lganligini isbotlaydi.

«Avesto» matnlari marosimiy ijro doirasida va unga quloq tutgan jamoa uchun badiiy idrok nuqtai nazaridan ham o'ziga xos qo'shiqlar bo'lganligini alohida ta'kidlash muhimdir. Aytish lozimki, «Avesto» matnlari ayni qo'shiq sifatida maxsus qiroat shakllariga buysundirilgan.[1] «Avesto»da xudolarga sig'inish bilan bog'liq bo'lgan marosimlarda, Navro'z va boshqa bayramlarda ham qo'shiq aytilgani bayon qilingan.

O'rta Osiyo xalqlari jumladan o'zbek xalqi professional xor san'atiga ega bo'lmasada, qadim zamonlardan beri jamoa bo'lib qo'shiq aytish an'analariga ega bo'lgan. O'zining turmush tarzi va mehnat faoliyati bilan bog'liq musiqa namunalarini yaratgan. Bolalar, ayollar, erkaklarning alohida qo'shiq aytish an'analari ham bo'lgan. Masalan, bolalarni ramazon oylarida ko'pchilik bo'lib qo'shiq kuylashi, Navro'z bayramlari, mavsumiy sayllarda qizlar va yigitlarni qo'shiq kuylashi, diniy marosimda kattalarni zikr tushishi, marsiya qo'shiqlarni kuylash, shuningdek, to'y marosimlarida ayollarni jamoa bo'lib kuylashlarini misol qilib ko'rsatish mumkin. Asrlar davomida to'plangan "Shashmaqom"ning vokal qismidagi taronalar ham uch-to'rt va undan ko'p xonandalar tomonidan aytilgani ma'lum. Farg'ona vodiysida keng tarqalgan "katta ashulalar" ni ham uch-to'rt va undan ortiq xofizlar birgalashib ijro etganlar. Folklor qo'shiqlarning (yor-yor, o'lan, yalla, lapar), katta ashula va maqomlardagi tarona, ufor naqsh qismlari birgalikda jamoa bo'lib aytish kabi ijrochilik shakllari kelgusida o'zbek xalqi orasida xor xavaskorligi, qolaversa o'zbek xor san'ati janrining rivojlanishiga zamin yaratdi.

**Kalit so'zlar va terminlar:** heyronomiya, epifalamiya, epinikiya odalari, fojia, komediya, qo'shiq ovozlarini tasniflash: netoide, mesoide, iratoide, yalla, lapar, katta ashula, Shashmaqom.

**Quyidagi o'quv vazifalarini bajaring**

1. Qadimgi xalqlarning mifologik ongi xor madaniyatida qanday aks etganini tushuntiring.
2. Ish daftariga asosiy tushunchalar va atamalarni yozing; ularning mohiyatini, ma'nosini tushuning. Ularni eslab qoling.

---

[1] X.Xamidov. O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi. T. 1996, 11 b.

3. Keyingi davrlarda qadimgi Falastin va Misr xor san'atining qaysi yutuqlari rivojlanganligini aniqlang.
4. Qadimgi Yunonistonning ommaviy xor janrlarini tavsiflang.
5. Qadimgi yunon madaniyatini taniqli vakillarining ismlarini ayting.
6. Qadimgi Yunoniston xor san'atining ayrim janrlarining rivojlanishiga sabab bo'lgan asosiy omillarni ajratib ko'rsating.
7. O'zbek xalqi orasida xor xavaskorligi, qolaversa o'zbek xor san'ati janrining rivojiga zamin yaratgan omillarni ayting.

## O'rta asrlarda Yevropa xor madaniyati

Mavjud bo'lgan san'at turlari - rassomchilik, arxitektura, haykaltaroshlik, musiqa - mazkur tarixiy davrda ularni mavjudligining estetik tamoyillari va rivojlanishi bilan bog'liq bir qator muammolarni nazariy asoslashni talab qildi. O'rta asrlarning estetik fikrini hal qilishga harakat qilgan, san'at uchun muhim muammolardan biri bu "go'zallik" va "go'zallik"ning mohiyatini aniqlash edi.

Ilk O'rta asrlarda Avreliy Avgustinning g'oyalari keng tarqaldi, u butun yer yuzidagi go'zallikni ilohiyning aksi deb hisobladi, uning mohiyatini uyg'unlik va tartib sifatida (raqamlardagi ifoda) taqdim etdi, matematik (musiqa va arxitekturadagi raqamli nisbatlarga e'tibor berish), "hissiy go'zallik" ni "o'ta sezgir go'zallik" bilan taqqosladi.

O'rta asrlar madaniyati rivojiga eng katta hissa qo'shgan davlatlar orasida birinchi navbatda Vizantiya - miloddan avvalgi IV asrda Rim imperiyasining bo'linishi natijasida paydo bo'lgan ulkan davlat tilga olinadi. Aholisining ko'p millatli etnik tarkibi Vizantiya musiqasining intonatsion tizimi, janrlari va shakllarining xilma-xilligini aniqladi. Vizantiyaning rang-barang, ko'p qirrali musiqiy madaniyatida xor san'ati yuqori mavqega ega edi. Cherkov va davlatning birligi ham professional cherkov, ham dunyoviy musiqaning rivojlanishiga imkon tug'dirdi.

Vizantiya ibodatining musiqiy asosi xor musiqasi edi. Cherkov muassasalarining mustahkam iqtisodiy bazasi katta miqdordagi xorlarni saqlashga imkon berdi, ular cherkov xizmatlari bilan bir qatorda ko'pincha saroy

marosimlarida ham qatnashardilar. Katta xorlar (150 dan 200 kishigacha) ba'zan boy vizantiyaliklarning oilaviy bayramlarida ham chiqardilar.

Vizantiyaning dastlabki professional cherkov qo'shiqlari ikkita stilistik yaqin turi bilan ifodalanadi. Birinchi turi so'zlashuvga yaqin bo'lgan, qiroat bilan ibodatlarini o'qish edi. Ikkinchisi intonatsion jihatdan rivojlangan bo'lib, musiqiy jihatdan yanada ifodali edi.

VII asrga kelib, madhiya Vizantiya xorlarining eng sevimli janriga aylandi. Cherkovdan tashqarida paydo bo'lgan madhiyalar cherkov xizmatida tezda o'z o'rnini egalladi. O'sha davrdagi maqtov madhiyalarini yaratuvchilari orasida monastirlardan birining rohibi - Roman Sladkopevets katta hurmatga sazovor bo'ldi. Uning madhiyalari kondaklar (Muqaddas kitob parchalari matnlariga lirik-dramatik mazmundagi ko'p bandli diniy qasidalar) shaklida yaratilgan. Kondaklarni yakkaxon va xor ijro etgan. Har bir yangi bandi naqorat bilan yakunlangan.

Madhiyaning keyingi shakli bir nechta (asosan 9 gacha) qo'shiq-odalardan tashkil topgan, kondak bilan taqqoslaganda ancha murakkab kompozitsiyani ifodalovchi kanon edi. Kanon yaratuvchilari orasida Ioann Damaskin va Andrey Kritskiy mashhur bo'lgan.

Vizantiya g'arbiy Yevropa mamlakatlari musiqiy madaniyatining rivojlanishiga, shuningdek, qadimgi Rossiyaning cherkov qo'shiqlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi.

1054-yilda xristian cherkovida rasmiy chegaralash bo'ldi: sharq "pravoslav" nomini, g'arb esa "katolik" nomini saqlab qoldi. Katoliklarning asosiy markazlari Italiya, Frantsiya, Ispaniya edi. Xristian dinining mustahkamlanishi g'arbiy Yevropa mamlakatlarining o'sha davrdagi cherkovga to'liq bo'ysunuvchi professional musiqa san'atini rivojlantirish uchun asos bo'ldi.

Uch asr davomida ko'plab olimlar rohiblar va musiqiy jihatdan o'qimishli ruhoniylar cherkov katolik darajasidagi kuylarni muntazam ravishda yig'ish ustida ishladilar. VII asrning boshlarida katta cherkov kodeksi tuzildi, uning yaratilishida asosiy rol Papa Gregori I. ga tegishli edi, Shuning uchun "Gregorian antifonarium"

nomi paydo bo'ldi va qo'shiq uslubining o'zi "Gregorian ashulachiligi"deb nomlandi.

Cherkov nizomiga ko'ra, Gregorian antifonariyasining ibodat-qo'shiqlari faqat erkaklar xori tomonidan bir ovozda (unison) ijro etilgan. Ushbu qo'shiqlarni ijro etish tartibi kalendar yili davomida qat'iy tartibga solingan.

O'rta asr ladlarida yozilgan kuylarning xarakteri vazminligi bilan ajralib turardi. Biroq, cherkov ashulalari uslubining rivojlanishiga xalq musiqasi ta'sir ko'rsatdi.

G'arbiy Yevropa cherkov musiqasini jonlantirgan va boyitgan yangi janr madhiyalar bo'ldi. Intonatsion jihatdan rivojlangan va ohangdor, tarkibiy jihatdan to'liq bolib, ular ibodayxonaga qatnovchi dindor kishilar orasida tezda tan olindi. Vaqt o'tishi bilan katolik cherkovining asosiy xizmati bo'lgan messaning barcha asosiy ashulalari madhiya tuzilishida qayta tiklandi. Beshta asosiy nomerlardan shakllangan tsikllilik katolik ibodatida hozir ham saqlanib qolgan: 1) Kyrie eleison 2) Gloria in exselsis Deo, 3) Credo in unum Deum, 4) Sanctus. Benedictus, 6) Agnus Dei.

O'rta asrlarda Yevropada professional dunyoviy musiqa cherkov musiqasidan keyin paydo bo'lgan. Professional dunyoviy ko'povozlikning birinchi qo'shiq janrlariga kondukt va motet kiradi.

Dastlab (IX-X asrlar) har qanday, yani dunyoviy yoki ma'naviy mazmundagi lotin tilidagi bir ovozli qo'shiq kondukt deb nomlangan. XII-XIII asrlar oralig'ida kondukt nihoyat dunyoviy xarakterga ega bo'lib, xalq ruhida yaratilgan ohangga asoslangan ikki ovozli kompozitsiyani anglatgan. Konduktning o'ziga xos xususiyati shundaki, barcha ovozlarda yagona adabiy matn va bitta ritm bo'lgan. Janrning bu xususiyati ommaviy ijro uchun juda mos edi, shuning uchun konduktlar ko'pincha turli xil ko'cha yurishlarida kuylangan.

Motet (fr. "mot", bu "so'z" degani) XII - XIII asrlarda Fransiyada paydo bo'lgan. Motetning kelib chiqishi cherkovning dastlabki ko'povozlik musiqasiga borib taqaladi va asosan organum, kondukt va diskant xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Motetning rivojlanishi va uning dunyoviy fazilatlarini mustahkamlanishi shahar va universitetlarning musiqiy hayoti bilan bog'liq. Ushbu janr

ko'povozligining asosiy xususiyati turli ritm, matn, xarakterga ega bo'lgan kuylarning bir vaqtning o'zida kelishidadir. Odatda, asosiy - quyi ovoz - cherkov kuyini lotin tilida, o'rta va yuqori - dunyoviy xarakterdagi kuylarni, ona tilida sevgi yoki xazilsimon mazmundagi matn bilan ijro etgan. Motet dunyoviy kontrastli polifoniyaning tarixiy shakllangan birinchi shakli deb hisoblanadi. Keyinchalik - XV asr va undan keyin - motet cherkov lotin matnida ma'naviy xarakterdagi polifonik xor asari sifatida mustahkamlanadi.

**Kalit so'zlar va terminlar:** o'rta asr dunyoqarashi, pravoslavlik, katoliklik, cherkov musiqasi, dunyoviy musiqa, kondak, kanon, motet, madhiya, messa, organum, kondukt.

**Quyidagi o'quv vazifalarini bajaring**

1. Ish daftariga asosiy tushunchalar va atamalarni yozing, ularning mohiyatini, ma'nosini tushuning. Ularni eslab qoling.
2. Vizantiya cherkov xor madaniyatining rivojlanishidagi asosiy tendentsiyalarni aniqlang
3. Xor san'atini rivojlanishida Roman Sladkopevets, Andrey Kritskiy, Ioann Damaskin faoliyatining tarixiy ahamiyatini ayting.
4. O'rta asrlar messalarining lotin nomlarini eslab qoling.
5. O'rta asr davrining eng mashhur dunyoviy janrlarini ta'riflang.
6. "Gregorian antifonariyasi"ning asosiy stilistik xususiyatlarini ajratib ko'rsating.
7. Keyinchalik xor musiqasining rivojlanishiga "poydevor" bo'lib xizmat qilgan O'rta asr xor madaniyatining yutuqlarini aniqlang.

## Xor ijrochiligida uyg`onish davri

San`atda XIV-XVI asrlar Uyg'onish davri yoki Renessans deb nom olgan.[2] Bu davrda ijtimoiy hayotdagi o`zgarishlar odamlar orasida yangi ehtiyojlarni yuzaga keltirdi, hayotga yangicha qarashlar shakllandi, ijtimoiy dunyoqarashning yangi darajasini rivojlanishiga imkon tug`dirdi. Yangi dunyoqarash madaniyatning ko'plab sohalarida o'zgarishlarni talab qildi. Uyg'onish davri gumanistik adabiyoti inson mavzusiga, yani uning hayotdagi huquqini himoya qilishga bag'ishlangan. Francesco Petrarxi (1304-1374), Giovanni Bokkachi (1313-1375) kabilar insoniy tuyg'ularning xilma-xilligi, sevgi quvonchini, yerdagi hayotning go'zalligini ochib beradilar.

Uyg'onish davrining xor musiqasida ko'povozlik rivojlandi, cherkov musiqasi xor janrlari - messa, motet bilan bog'liq polifoniya rivoj topdi. Italyan kompozitori D.Palestrina ijodi bu davrning polifoniya san'ati rivojiga katta hissa qo'shdi. Xor asarlarini yozishda yangi xor shakllari, kompozitorlar uslubining murakkablashuvi musiqa ta`limida progressiv o'zgarishlarni olib keldi. Kuylash mahoratining badiiy va texnik darajasi bo'yicha namunali professional xor jamoalari paydo bo'ldi.

Uyg'onish davri xor polifoniyasining rivojlanishi musiqa san'atining umumiy rivojlanishidagi yangi bosqichni belgilaydi, chunki u nafaqat xor janrlarining rivojlanishi va xor kompozitorlik yozuvining uslubini takomillashtirish bilan, balki cholg'u janrlari va umuman cholg'u musiqasining rivojlanishi bilan bevosita bog'liq dir.

Ushbu davrda shakllangan xor polifonik ko'povozlik uslubi keyinchalik qat'iy uslubning shartli nomini oldi. Qat'iy yozuv polifoniya uslubi, birinchi navbatda, cherkov musiqasida rivojlangan. Ushbu uslubning o'ziga xos xususiyatlarini quyidagilar deb hisoblash mumkin:

- qadimgi diatonik ladlardan foydalanish;
- ravon harakatining ustunligi, xromatizm va keskin intonatsiyalar-septimalar, nonalar, orttiirilgan va kamaytirilgan intervallardan qochish;

[2] "Uyg'onish davri" atamasi o'rta asrlarda unutilgan qadimiy merosning tiklanishini anglatadi

- ovoz yo'nalishining ko'tarilish va tushish chiziqlarining qat'iy muvozanatiga rioya qilish;
- vertikallarning ohangdorligi.

To'liq mantiqiy xulosaga keltirilgan ushbu tendentsiyalar italiyalik kompozitor, Rim kompozitorlik maktabining vakili Jovanni Palestrinaning asarlarida yaqqol namoyon bo'ldi. Palestrina kompozitsiyalarida xor polifoniyasi mutlaqo yangi sifatga ega bo'ladi, chunki ovozlarning taqlid to'quvlari birgalikda aniq garmonik "vertikallar"ni hosil qiladi va natijada akkord-polifonik uslub yaratiladi, bu esa ijro paytida matnning aniqligiga olib keldi. Palestrinaning ijodiy merosi yuzdan ortiq messa, ikki yuzdan ortiq motet, shuningdek magnificat, lamentatsiyalar, madhiyalar va madrigallarni o'z ichiga oladi.

Umuman madaniyatning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan yangi progressiv hodisa Italiya "ars nova" - yangi san'atining musiqasi - monastir itoatidan chiqish, oddiy odamlarning yer yuzidagi hayotiga, tashvishlari va quvonchlariga yaqinlashish istagi edi. Bunday tendentsiya ko'plab dunyoviy janrlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Dunyoviy qo'shiq va raqs shakllari o'sha davrda butun Italiya bo'yicha keng tarqaldi. Shaharlarda kundalik ma'naviy lirika janri bo'lgan lauda[3]-madhiyalari yangradi. Ushbu madhiyalarning adabiy asosi fuqarolarning keng doirasiga tushunarli bo'lgan mahalliy lahjalardagi matnlar edi. Florentsiya karnaval bayramlarida *frottola*[4] (ital.frotto – "olomon" ) paydo bo'ldi. Quvnoq, sevgi yoki hazil mazmunidagi, raqsga oid ritmdadi frottola nafaqat omma orasida, balki aristokratik doiralarda ham o'z o'rnini egalladi. Dehqonlar komik-qo'polroq, hazilsimon qo'shiqlar – *villanella*[5] (ital. "qishloq qo'shig'i")larni kuylashdi. Xalq xor raqsidan *ballata*(raqsga oid qo'shiq) paydo bo'ldi. Shuningdek, cholg`u asbobi jo'rligida yakkaxon ijrosi uchun ham ballatalar bor edi.

XIV-XVI asrlarda kanon tuzilishida bo'lgan kachcha (caccia - ov qilish, quvib borish) janri keng tarqaldi. Kachchining odatiy tarkibi-ov ko'rinishlari, maishiy sahnalar. Tasviriy lahzalarga qo'shimcha ravishda — quvish, musiqada aniq taxmin qilingan itlarning hurishi, ko'pincha kachchining majoziy mazmuniga

---

[3] "Laudare"- lotin tilidan olingan. "maqtash" degan ma'noni anglatadi

[4] XV-XVI asrlar italyan xor qo'shig'i. odatda to'rt ovozli. dunyoviy matn. lirik mazmunga ega. Major ladi. raqsona ritmi. yuqori ovozdagi rivojlangan kuyi bilan ajralib turadi

[5] XVI-XVII asrlar italyan qo'shig'i. Asosan uch ovozli. parallel harakatdagi ovozlarga qurilgan. Jonli. sho'x xarakterda. lirik va yumoristik mazmunda.

ko'proq yashirin kinoyalarga asoslangan matn kiritilgan bo'lib, unda "ovchi" oshiq bo'lgan qahramonni, "ov" esa sevgi noz-karashmasini anglatadi. Biroq, chuqur mazmunga ega va shakl bo'yicha takomillashgan janr - madrigal janri bo'ldi.

Madrigal - bu Yevropa musiqa madaniyatining deyarli to'rt asrlik davri bilan bog'liq bo'lgan janr. Italyancha "madrigal" lotin tilida ijro etilgan ma'naviy qo'shiqlardan farqli o'laroq, matnning dunyoviy xususiyatini ko'rsatadigan italyan tilidagi qo'shiq. Musiqiy asarlarning estetik jihatdan mustaqil turi sifatida madrigal 100 yilga yaqin mavjud bo'ldi. Janrning gullab-yashnashi XVI-XVII asr boshlariga to'g'ri keladi. Ushbu davrda madrigallar, qoida tariqasida, professional musiqachilar va taniqli musiqa ixlosmandlari, ya'ni deyarli yarim professionallar uchun mo'ljallangan edi. Qo'shiq janrlari bilan bir qatorda yirik tsiklik shakllar ham takomillashtirildi va rivojlandi.

XVI asrda polifonik messa janri rivojlandi. Messa o'sha davrni ko'plab kompozitorlarining ijodiy merosida markaziy o'rinni egalladi. Asarlar ijrosining murakkabligi nafaqat professional musiqachilarni, balki musiqa ixlosmandlarini ham yuqori darajada o'qitishni taqozo etdi. Musiqa ta'limi jamiyatning yuqori doiralarida dunyoviy ta'limning ajralmas atributi hisoblangan. Ko'plab shaharlarda cherkovlar qoshida ochilgan musiqiy ta'lim muassasalari professional xor san'atining rivojlanishiga hissa qo'shdi. VI asrda Buyuk Papa Gregori hukmronligi davrida vujudga kelgan "Shola cantorum" - eng qadimgi va obro'li Rim qo'shiqchilik maktablaridan biri edi. XIV-XV asrlarda yirik shaharlarda mahalliy monastirlar qoshida musiqiy iqtidorli kambag'al yetim bolalar uchun boshpana maktablar ochilgan. Ushbu muassasalarda bolalarni xor qo'shiqchiligi va hunarmandchilikka o'rgatdilar. Bunday o'quv yurtlarini xor guruhlarining ijro darajasi juda yuqori bo'lgan. Musiqiy mahoratga ega bo'lgan eng rivojlangan jamoalarda o'zlarining ijrochilik uslublari rivojlandi. Masalan, Avliyo Mark jomesining venetsiya xori o'zining kuylash san'ati bilan Papa kapellasi bilan bir qatorda mashhur bo'lgan, ammo uning ijro uslubi qat'iy va cheklangan Rimdan tubdan farq qilar edi. Tez orada bunday boshpana maktablari konservatoriyalar deb nomlana boshladi. Konservatoriyalarda o'qitish yuqori professional darajada olib borildi. Ushbu o'quv yurtlaridan ko'plab ajoyib kompozitorlar chiqdi, masalan, F.

Durante, N. Iomelli, N. Pichchini, D. Paiziello, D. Pergoleze va boshqalar. Konservatoriyalar qoshida kapellalar faoliyat ko'rsatdi, xor va cholg'u kontsertlari tashkil etildi. Neapol va Venetsiya konservatoriyalari qo'shiqchilik san'atining rivojlanishiga muhim hissa qo'shdilar. O'sha davrlarda o'g'il va qiz bolalarning ta'limi alohida bo'lganligi sababli, turli konservatoriyalar ma'lum jinsdagi bolalarni o'qitishga ixtisoslashgan edi. Shunday qilib, o'rnatilgan an'anaga ko'ra, Neapolitan konservatoriyalarida o'g'il bolalar, venetsiyalik konservatoriyalarda qizlar tarbiyalangan. Ammo ikkalasi ham o'qitish darajasi va o'quvchilarining musiqiy mahorati bilan mashhur edi.

Vokal pedagogikasi bilan shug'ullangan ajoyib musiqachilarning nomlari bizgacha yetib kelgan. Bular: Djozeffo Sarlino, Djulio Kachchini, Ottavio Durante, Mixail Pretorius. Vokal san'atini o'qitish usullari va ijro amaliyotiga oid talablar to'g'risida ba'zi ma'lumotlar ham saqlanib qolgan. Vokal san'atini o'qitish metodlari bilan bog'liq ba'zi ma'lumotlar saqlanib qolgan. Bu davrda tovushlarni buzmasdan, mazmunli qo'shiq aytishga erishish va tovushlarning to'g'ri, aniq talaffuziga katta e'tibor berildi[6]. Kuylash texnikasini tarbiyalash asoslari bo'yicha qimmatli maslahatlar D.Kachchini tomonidan "Nuove Musiche" nomli madrigallar to'plamida kirish so'zida taqdim etilgan. Uning tavsiyalari ijro etish qoidalariga tegishli bo'lib, qat'iy va yumshoq hujumda tovush chiqarish qoidalari, ovozning butun diapazonida (buning uchun asarning tonalligi qo'shiqchi uchun qulayligi muhim deb qaralgan) tovushning ravonligi, intonatsiyaning sofligi, aniq talaffuzga erishishga yordam beruvchi usullar to'g'risida berilgan.

Italiya bilan bir qatorda, Uyg'onish davri xor san'atining rivojlanishidagi yorqin yutuqlari bilan Niderlandiya ham mashhur bo'ldi. Niderlandiya kompozitorlarini bir necha avlodining muvaffaqiyatli ijodi nafaqat o'z vatanida, balki Italiya, Avstriya, Germaniya va Ispaniyada Yevropa musiqasi, avvalombor, xor polifonik janrlarining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Ularning ijodida asosiy o'rinni cherkov musiqasi – messa, magnifikat va diniy qo'shiqlar (psalom) egalladi. Shuningdek, ko'povozlik qo'shiqlar, madrigal va motetlar ham yaratildi.

[6] Назаренко И.К. Искусство пения. - М.:1968. 15

Niderlandiyada musiqa san'ati va qo'shiqchilik ta'limi ancha yuqori darajaga ko'tarildi. Xor madaniyatining rivojlanishida metrizlar – xonandalarning maktab-boshpanalari katta rol o'ynadi. Niderlandiyaning deyarli barcha yirik polifoniya ustalari – G.Dufay, Y.Okegem, Y.Obrecht, metriz tarbiyalanuvchilari bo'lishgan.

Niderlandiya kompozitorlik maktabining mashhur namoyandasi Orlando Lasso hisoblanadi. U 50 dan messa, 1000 dan ortiq motetlar, shuningdek ko'pgina qo'shiq va madrigallar yaratgan. U Flandriyada tug'ilgan, lekin Italiyada katta bo'lgan, Fransiya va Angliyada yashagan. Ijodiy va hayot yo'lining oxirida u Myunxen kapellasining saroy kapelmeysteri bo'lib ishlagan. Orlando Lasso turli mamlakatlarning musiqa madaniyatining xususiyatlarini osongina, qiynalmay o'zlashtirgan. Italiyalik, frantsuz va nemis ustalarining yutuqlarini o'rganib, u diniy va dunyoviy musiqa janrlarida yorqin individual namunalarni yaratdi.

Uyg'onish davrining turli mamlakatlarida o'rnashgan musiqiy ijtimoiy hayot shakllarining xilma-xilligi, dunyoviy va diniy xor musiqasi janrlarining turli-tumanligi ijrochilikning yangi turlarning paydo bo'lishiga turtki bo'ldi. Ushbu tarixiy davrda paydo bo'lgan ijro uslubi an'analari asosan diniy va dunyoviy musiqani ijro etish xususiyatlaridagi farqlar bilan bog'liq bo'lib, ular o'sha davrning nazariy risolalarida "motet" va "madrigal" ijro uslubi sifatida asoslandi. O'sha davrning taniqli musiqachilari M.Pretorius va Dj.Freskobaldi o'z davrining turli xil musiqalarini ijro etishning odatiy uslublarini tasvirlab, madrigal uslubi "inson qalbini yoqimli hayajonlantiradigan his-tuyg'ular: sevgi, muloyimlik, rahmdillik va boshqalar... "; motet uslubi esa "birinchi navbatda sig`inish, hayrat, hasratni" ifodalash uchun mos keladi deb ta'riflaydi.

Uyg'onish davri g'arbiy Yevropa madaniyatining eng ko'zga ko'ringan vakillari: Yakob Arkadelt, Luka Marentsio, Djovanni Perluidji Palestrina, Giyom Dyufai, Iogann Okegem, Josken Depre, Orlando Lasso, Gans Leo Gassler, Giyom de Masho, Kleman Janneken.

**Kalit so'zlar va terminlar:** uyg`onish davri, renessans, polifoniya, messa, motet, ars nova, frottola, villanella, ballata, madrigal, shola cantorum, metriz.

**Quyidagi o'quv vazifalarini bajaring**

1. Ish daftariga asosiy tushunchalar va atamalarni yozing, ularning mohiyatini, ma'nosini tushuning. Ularni eslab qoling.
2. Uyg'onish davri musiqa san'atining rivojlanishi uchun muhim bo'lgan va shu davr estetik fikrining eng muhim qoidalarini ajratib ko'rsating.
3. Dunyoviy janrlarning nomlarini tushuntiring va ularning stilistik xususiyatlarini tavsiflang.
4. "Polifonik messa" va "motet"ning xususiyatlarini aytib bering.
5. Uyg'onish davri qo'shiqchilik ta'limining asosiy tamoyillarini aytib bering. Davrning ajoyib vokal o'qituvchilarining ismlarini eslab qoling.
6. Niderlandiyaning xor janrlari va shunga o'xshash italyan janrlari o'rtasidagi uslubiy farqlarni aniqlang.
7. Uyg'onish davrida shakllangan "motet" va "madrigal" ijro uslublarining asosiy xususiyatlarini ta'riflab bering.

## GIYOM DYUFAI



## JOHANNES OCKEGHEM



## ADRIAN VILLART




## YAKOB ARKADELT



**DJOVANNI PYERLUIDJI da PALESTRINA**



**JOSKEN DEPRE**



**ORLANDO DI LASSO**



**KLEMANN JANEKEN**



## Yevropa davlatlarida xor ijrochiligining paydo bo'lishi

XVII asrning boshlanishi G'arbiy Evropada uyg'onish gumanizmi inqirozi, insonning dunyodagi o'rnini qayta yo'naltirish, falsafa, fan va badiiy ijod sohasida yangi g'oyalarni shakllantirish bilan ajralib turdi. Dunyoqarashning o'zgarishi, yangi badiiy yo'nalishlarning dunyo haqidagi tasavvurlarini himoya qilgan voqelikni badiiy rivojlantirishning yangi tamoyillariga o'tishga olib keldi. Ushbu tamoyillarga amal qilgan, san'atdagi yangi yo'nalishlar - klassitsizm va barokko bo'ldi.

Barokko vakillari tomonidan e'lon qilingan asosiy g'oyalardan biri, barcha san'atlarni sintez (qorishma) qilish g'oyasi edi. Ushbu g'oyaning tarafdorlari orasida shoir Jambattista Marinoning roli katta bo'ldi. U: "Rassomlik san'ati tilsiz she'riyat, she'riyat esa so'zlovchi rassomlik san'ati..., musiqaga so'zlar kerak, musiqa va she'riyat bir-biriga mos keladigan san'atlardir",- deydi. Ushbu g'oya Barokko yo'nalishining yetakchi tendensiyalaridan biri bo'lib, badiiy sohani kengaytirdi. San'at sintezi g'oyasi musiqiy muhitda juda samarali bo'ldi. Yangi musiqiy janr — operaning tug'ilishi u bilan bog'liq bo'lib, u o'z davrining talablariga mos keladi va kompozitorlik tafakkurining yangi shaklini aks ettiradi. Italiyada yuzaga kelgan opera tezda butun Yevropaga tarqalib, musiqa san'atining boshqa janrlariga ta'sir ko'rsatdi. Xor musiqasida oratoriyalar va kantatalar paydo bo'ldi.

Opera singari, oratoriyalar va passionlar ham ma'lum bir mazmunga ega bo'lib, yakka nomerlar, recitativlar va xorlarni o'z ichiga olgan. Operadan farqli o'laroq, voqealar sahnada ko'rsatilmagan, balki u haqida so'zlab berilgan.

Birinchi kantatalar yakka ijro uchun yirik vokal kompozitsiyalari edi. Shaxsiy his-tuyg'ularni yorqin ifoda etish istagi XVII asr o'rtalarida kantatani kengaytirilgan opera sahnasiga yaqinlashtirdi. Bu vaqtga kelib ariyalar, rechitativlar va ansambllardan tashkil topgan "kamer" kantatalar paydo bo'ldi va asr oxiriga kelib "xor" kantatalari tsikl dramaturgiyasida xor birinchi o'rinni egallaydi.

Opera spektakllarida va kontsert zallarida qo'shiq kuylash qo'shiq ohangdorligining yangi fazilatlarini talab qila boshladi. Kuylashga bo'lgan talablar qo'shiqchilik mahoratining yangi tamoyillarini shakllantirish va rivojlantirishga olib keldi. Natijada "bel canto" (go'zal kuylash) yangi kuylash madaniyati paydo bo'ldi.

Yangi vokal mahorati va vokal pedagogikasining rivojlanishiga o'sha paytgacha mavjud bo'lgan musiqiy ta'lim muassasalari, konservatoriyalar katta hissa qo'shdi, ularning asosiy fanlaridan biri, yuqorida aytib o'tilganidek, qo'shiq kuylash hisoblangan. Konservatoriyalar qoshida kapellalar faoliyat olib borgan, cherkovlar faoliyat yuritgan, xor va cholg'u kontsertlari, teatrlashtirilgan tomoshalar tashkil etilgan. Bunday muassasalarning ijtimoiy ahamiyati ham musiqiy, ham ma'rifiy faoliyat bilan belgilandi: shaharlarning barcha aholisi tashrif buyurishi mumkin bo'lgan kontsertlar aholining turli qatlamlari uchun katta qiziqish uyg'otdi. Konservatoriyaning tarbiyalanuvchilari bosh cherkovlarda qo'shiq kuylashar, teatrlarning opera spektakllarida qatnashar, jamoat ijodiy hayotida faol ishtirok etardilar.

O'sha davrdagi xor san'atining rivojlanishida taniqli Italiya akademiyalari - shahar va cherkov hokimiyatidan mustaqil bo'lgan erkin jamiyatlar ham progressiv rol o'ynagan, ularning maqsadi fanlar, adabiyot va san'atni rag'batlantirish va rivojlantirishga qaratilgan. Ular orasida eng qadimgi va eng mashhurlaridan biri Assademia di Rlatone (Platon sharafiga Akademiya), 1470-yilda Florensiyadagi Medici saroyida tashkil etilgan. XVI asr oxiri - XVII asr boshlarida Venetsiya, Milan, Neapolda akademiyalar ochildi. 1615-yilda Bolonyeda Assademia di Floridi tashkil etildi. Ushbu muassasalarning maqsadi musiqa san'atining har xil turlarini o'rganish va ommalashtirishga ko'maklashish edi. Akademiyalar nafaqat kontsertlar, balki xorlar, orkestrlar, yakkahonlar ishtirok etgan haqiqiy festival-tanlovlarni ham o'tkazdilar. Ba'zi akademiyalar ancha vaqtgacha mavjud bo'lgan. Masalan, XVIII asrning boshlarida Boloniya akademiyasi Yevropa musiqa ta'limining yirik nufuzli markazi hisoblangan. Akademiya a'zolari professional musiqachilar orasida katta obro'ga ega edilar. Ular Jovanni Bassani, Juzeppe Torelli, Arcangelo Corelli, Jovanni Martini (kompozitor va nazariyotchi Padre

Martini), Volfgang Amadey Motsart kabi taniqli xorij kompozitorlarini o'z ichiga olgan.

XVII asrning dunyoviy musiqiy hayotidagi jonlanish va yangilik cherkov musiqasining asoslariga ta'sir qilmay qolmadi. O'zgarishlar darhol sodir bo'lmadi. Ko'pgina ibodatxonalar ko'povozlik polifonik tuzilishdagi asarlarni ijro etishga allaqachon ruxsat bergan edi. Ammo monastirlarda cherkov tartibi, xristiyan dinining urf-odatlarini saqlagan holda, o'rta asrlarning eski qoidalari saqlanib qoldi: ular faqat "a capella" bir ovozli xor asarlarini rivojlantirdilar.

Italiya bilan bir qatorda XVII asr boshqa mamlakatlar, shu jumladan Angliya va Germaniya xor musiqasining rivojlanishida yangi bosqich bo'ldi. Angliyaning ko'plab cherkov xorlarining repertuari messalar, motetlar, antemalar, lamentatsiyalar, psalm (yunoncha psalmos–"arfa jo'rligidagi maqtov qo'shig'i") – diniy injil qo'shig'i. Shox Dovud yaratgan deb hisoblanadi. Bu lirik janrning eng yaxshi namunalari xalq maishiy turmushida keng tarqalgan) lardan iborat edi. Madrigal bu erda (Italiyada bo'lgani kabi) dunyoviy musiqa qiroli bo'ldi. Taniqli ingliz kompozitorlari Uilyam Berd, Tomas Morlay, Jon Uilbay, Tomas Uilks madrigallari intonatsiyalarning iliqligi, barcha elementlarning hissiy sezgirligi, ravshanligi va nafis soddaligi bilan ajralib turadi. Xor san'atining rivojlanishiga eng katta hissa qo'shgan Angliya kompozitorlari orasida Genri Pyorcell (1658-1695)ni ta'kidlash lozim. U motetlar, antemlar (A capella xori uchun yoki vokal yakkaxon va ansambli bo'lgan xor uchun yozilgan Injildan shoh Dovudning Zabur matnlariga ulug'vor madhiyalar) yozgan. G.Purcell qo'shiqlari yakka va xor, gomofonik va polifonik tuzilish, tasvirlar va mavzularning keng doirasini qamrab oldi.

XVII asrda Germaniyaning ko'plab musiqachilari orasida Geynrix Shuts ijodi mamlakatning xor madaniyatini rivojlantirishda ayniqsa muhim rol o'ynadi. Uning yaratgan asarlari: "Muqaddas simfoniyalar", "Kichik konsertlar" va boshqalar.

XVIII asr xor san'atining yuksak yutuqlari, birinchi navbatda, G.F.Gendel, I.S.Bax, V.A.Motsart, L.V.Betxoven nomlari bilan bog'liq. Muhim voqealar, muhim muammolar, buyuk g'oyalarni o'zida mujassam etish uchun o'tmish va

hozirgi zamon rassomlari ko'pincha monumental janrlar va yirik shakllarga murojaat qilishadi. Shunday qilib, XVIII asrning boshlarida G.F.Gendelning (1685-1759) monumental oratoriyalari xor san'atida yangi sahifa ochdi. Janr ichidagi mujassam tasvirlar mavzusi va doirasiga ko'ra G.F.Gendelning oratoriyasi odatda quyidagicha bo'linadi: qahramonlik dramalari – "Samson", "Saul"; vatanparvarlik – "Iuda Makkavey"; qahramonlik maqtovi – "Messiya": oratoriya-ertak – "Semela", oratoriya-muhabbat darmalari – "Gerakl", lirik oratoriya – "Donishmandlik, shodlik va qayg'u haqida" va bosh. Kompozitsion tamoyillariga asosan, G.F.Gendel oratoriyalari operaga yaqin bo'lib, asar dramaturgiyasi kontrast obrazlarni qarshi qo'yishga asoslanadi. Oratoriyada markaziy o'rin xorga berilgan bo'lib, xorlar fakturasi turlicha: imitatsiyali va akkordli bo'limlarning qiyoslanishi, xor fuga va fugatolari. Yakka nomerlarninig asosiy shakli esa ariyalar hisoblanadi.

G.F.Gendelning xor ijodi nafaqat professional musiqa san'ati evolyutsiyasida, balki Angliyaning havaskor xor madaniyati an'analarining rivojlanish tarixida ham muhim voqea bo'ldi. 1715- yildan boshlab mamlakat shaharlarida har yili o'tkaziladigan xor festivallari o'tkazila boshlandi, uning davomida ko'plab havaskor xorlar G.F.Gendelning oratoriyalarini ijro etish uchun professionallar bilan birlashdilar. Ushbu milliy bayramning avj nuqtasi 1857-yil hisoblanadi, Londonda shunday chiqishlardan birida G.F.Gendel musiqasini ijro etuvchi professional va havaskor guruhlarning birlashtirilgan xori soni uch ming kishiga yetgan.

XVIII asrda nemis xor san'ati o'zining cho'qqisiga erishdi. O'sha davrning yangi hodisasi, umuman san'at va xor, xususan, I.S.Baxning(1685-1750) ijodi asosan g'arbiy Yevropa musiqasining keyingi rivojlanish yo'lini belgilab berdi. Xor asarlari kompozitor merosining markaziy qismini egallaydi. I.S.Bax yashagan davr, XVII asr XVIII asr boshlarida Germaniyaning ijtimoiy turmush tarzi kuylash bilan bog'liq bo'lgan. Ular uy sharoitida ko'p kuylashgan va cherkov xizmatida xor qo'shiqlari ajralmas muhim atribut bo'lgan. I.S.Bax uch yuzga yaqin kantatalar (bizning davrimizga qadar ikki yuzga yaqin kantatalar saqlanib qolgan), uchta oratoriya, to'rtta passion, ikkita magnificat, bundan tashqari motetlar va messalar yozgan. Ushbu asarlar bastakor tomonidan cherkov xizmati uchun yaratilgan

bo'lsa ham, ularning majoziy mazmunining falsafiy chuqurligi va kengligi diniy doiradan tashqariga chiqadi. I.S.Bax o'z asarlarida foydalangan kompozitsion-ifodaviy vositalar hayotning ruhiy holatlarini, hissiy xilma-xilligini aks ettiradi.

I.S.Bax asarlari musiqashunos Yu.Druskinning so'zlariga ko'ra, "kuylayotgan ovozlar xori" - Bax asarlarining tuzilishini shunday aniqlash mumkin... "So'zlar ta'siri" ko'p ma'nolidir. Avvalo, bu she'rning tuzilishi, talaffuz, artikulyatsiya masalalari bo'lib, u Baxning barcha asarlariga xosdir. Va nihoyat, alohida so'zlar, epitetlar, metaforalar, taqqoslashlar asosida Bax o'zining ichki qonuniyatlari bilan boshqariladigan musiqiy rivojlanish rejasini ishlab chiqadi[7].

Vena klassiklari - Gaydn, V. A. Motsart va L. Betxoven turli janrdagi xor musiqasida ijod qilganlar.

Y.Gaydnning xor asarlari (1732-1809) – "Olamning yaratilishi" (1796–1798), "Toviyning qaytishi", "Yil fasllari" (1798 – 1801) oratoriyalari; o'n to'rtta messa, xor va orkestr uchun "Bo'ron" madrigali, yirik shakldagi xor asarlaridan tashqari, Y.Gaydn fortepiano jo'rligida ijro etiladigan ajoyib uch va to'rt ovozli xorlarni ham yaratgan.

Kompozitor asarlari xalq qo'shiq elementlari va barcha janr xilma xilligi bilan sug'orilgan.

"Olamning yaratilishi" oratoriyasining musiqasi xalqchil, hayotga muhabbatni tarannum etuvchi, tasviriylikka ega bo'lib, uning mazmuni va musiqiy ifodaviy vositalari yerda yashovchi barcha jonzotni madh etishga qaratilgan. Mazkur oratoriyada xorlar hamda yakkaxon va ansamblli xorlar ko'p. Kompozitor xorda divizi qo'llamagan, barcha xorlar to'rt ovozli bo'lib, garmonik yoki polifonik yozuvda berilgan.

"Yil fasllari" oratoriyasi to'rt qismdan iborat bo'lib, har bir qism aynan bir faslga, ya'ni Bahor, Yoz, Kuz, Qishga bag'ishlanadi. Bu asarda ham xorlar "divizi"siz to'rt ovozli aralash tarkib uchun yozilgan, alohida xorlar ichida bir turdagi xorlar uchun yozilgan epizodlar ham uchraydi.

---

[7] Бодишевская Н.Н. История зарубежного хорового исскуства.М: 2012, 38 b.

V. A. Motsartning xor musiqasi (1756-1791) turli janrlarda yaratilgan. Bular – “Tavba qilayotgan Dovud”, “Ozod qilingan Betuliya” oratoriyalari; messalar, shu jumladan “Katta messasi” va “Rekviyem”; diniy va dunyoviy kantatalar; “Yozgi oqshom” va “Ave verum corpus” kabi alohida kichik lirik xorlar. Kantata-oratoriya janridagi asarlari orasida “Katta messa”si musiqiy tarkibning ahamiyati va ko‘lami jihatidan ajralib turadi. O‘n sakkizta nomerdan iborat ushbu asar I.S.Baxning h-moll messasi an’analarini davom ettiradi.

Lyudvig van Betxovenning (1770-1827) xor ijodi ma’rifatparvarlikning qahramonlik g‘oyalarini aks ettirdi. Uning xor uchun yozgan asarlari: “Iso moyli tog‘da”, Tantanali messa, C-dur messalari, Shillerning “Quvonch” nomli odasi matnidagi To‘qqizinchi simfoniyaning xor finali. Kompozitorning xor ijodida "Tabiatni inson tomonidan maqtash", "Bahor chaqirig‘i" kabi kichik partituralar ham mavjud. Ushbu xor miniatyuralari qo‘shiq turiga yaqin bo‘lib, ularni yetarlicha musiqiy darajaga ega bo‘lgan havaskor xorlar ijro etishlari mumkin.

XVIII asrning oxirida sodir bo‘lgan buyuk frantsuz inqilobi Yevropaning ijtimoiy hayotining barcha sohalariga katta ta'sir ko‘rsatdi. Bu davrda Frantsiya va boshqa mamlakatlar madaniyatida jamoa bo‘lib kuylash alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Aynan u frantsuz inqilobi tomonidan e'lon qilingan xalq birligining timsoli va erkinlikni sevish kabi yangi g‘oyalarni ifodaladi. Parijda katta maydonlarda bo‘lib o‘tadigan ommaviy teatrlashtirilgan bayramlarda 2000 ga yaqin ulkan xorlar ishtirok etdi. Xalq ommasi nafaqat tomosha qildi, balki unda faol ishtirok etdi. Inqilobiy yillardagi ushbu tomoshalarda xor san’atining ijtimoiy va tashkiliy kuchlari yaqqol namoyon bo‘ldi.

Frantsiya inqilobi davrida paydo bo‘lgan yangi janrlar, uslublar va urf-odatlar musiqa san’atining keyingi rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatdi.

XIX asrning 30-yillari o‘rtalarida Frantsiyada mashhur “Orfeon” qo‘shiq uyushmasi paydo bo‘ldi. 70-yillarga kelib uning ishtirokchilarining umumiy soni 60 mingga yaqin kishidan iborat edi. Uyushmaning asosiy tarkibi ishchilar edi, bu esa ushbu jamiyatning faoliyat yo‘nalishini belgilab berdi.

XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida san’atda romantizm deb nomlangan yangi yo‘nalish paydo bo‘ldi. Romantizmning falsafiy asosi XVIII asr faylasuflari

tomonidan bilimlarning eng yuqori manbai sifatida e`lon qilingan ongni inkor etishdir. Romantizm falsafani ham, ilmni ham bilishning eng yuqori turi deb hisoblamadi. Romantizm mafkurachilarining fikriga ko'ra, voqelikni chinakam bilish san`atda rassomning daho sezgisi yordamida mumkin, shuning uchun rassom o'ziga xos fazilatlar va imkoniyatlarga ega bo'lgan maxsus shaxsdir.

Romantiklar musiqani san`atning barcha turlaridan eng yuqori deb hisoblashgan, bunday baland poydevorni musiqa tomonidan ishlatiladigan ifodaviy vositalarning o'ziga xos xususiyati bilan izohlashgan. Umuman olganda, musiqa san'atida romantik tendentsiyalar yangi musiqiy shakllarning paydo bo'lishida, asarlarning majoziy-tematik mazmuniga, shuningdek yangi musiqiy ifoda vositalarini izlash istaklarida namoyon bo'ldi. Romantik san'atda hissiyotlar, ehtiroslar, xayolotning qizg'in parvozi ustunlik qildi. Bu xususiyatlarning barchasi xor musiqasida o'z aksini topdi.

XIX asrning boshlarida Germaniyada, so'ngra Shveytsariya va Avstriyada xor havaskorlik uyushmalari - lidertafellar keng tarqaldi. Birinchi lidertafel 1809-yilda Berlinda taniqli nemis o'qituvchisi va kompozitori Karl Zelter rahbarligida paydo bo'lgan. Bu ilg'or vatanparvarlik g'oyalari birlashtirgan shoirlar, qo'shiqchilar, bastakorlardan (24 ishtirokchidan) iborat bo'lgan to'garak edi. Keyinchalik lidertafellar nafaqat Germaniya bo'ylab, balki boshqa mamlakatlarda ham tarqaldi. Lidertafel harakati ko'plab erkaklar xorlarini yaratishga turtki bo'ldi. Ushbu guruhlarning rahbarlari ko'pincha o'sha davrning taniqli kompozitorlari va musiqiy arboblari bo'lishgan. XIX asrning 60 - yillarida Leypsig va Frankfurtda birinchi ishchi qo'shiq uyushmalari-fereynlar tashkil etildi.

Mafkuraviy yo'nalishi ommaning aksariyat qismining intilishlariga mos keladigan ommaviy xor birlashmalarining paydo bo'lishi va rivojlanishi boshqa mamlakatlar - Chexiya, Polsha, Bolgariya, Serbiyaga ham xosdir. Bu erda bunday tashkilotlarning faoliyati milliy ozodlik harakati bilan chambarchas bog'liq edi.

XIX asrda Angliyada havaskorlik xorlari faol rivojlanishda davom etdi. Asr oxiriga kelib Angliyaning barcha umumta'lim maktablarida joriy etilgan "sol-FA Notation" soddalashtirilgan musiqiy yozuv tizimi turli tabaqadagi aholining musiqiy savodxonligini sezilarli darajada oshirdi. Universitet va kollej

talabalarining xor guruhlari, ishchi xorlar, barchaning sevimli xalq qo'shiqlaridan tashqari, o'z dasturlariga klassik xor musiqasi asarlarini - I.S.Bax, G.FGendel, G. Purcell asarlarini ham kiritdilar. Har yili o'tkaziladigan xor festivallarini o'tkazish an'anasi davom etdi.

Nemis bastakori Karl Mariya Veber (1786-1826) romantizm davrida xor madaniyatini rivojlantirishga katta hissa qo'shdi. K.M.Veber ijodining gullab-yashnashi Germaniyaning madaniy hayotidagi progressiv o'zgarishlar davriga to'g'ri keldi, bu Napoleon ustidan qozonilgan g'alaba tufayli mamlakatda vatanparvarlik yuksalishi natijasida yuzaga keldi. Erkaklar xori va ansambl bo'lib kuylash, aralash xorlar va ansambllar kabi ijrochilik san'atining yangi shakllarini ommalashtirish kompozitor ijodida o'z aksini topgan. K.M.Veber tomonidan Teodor Kerner matnlarida umumiy vatanparvarlik tuyg'usi taassurotida yaratilgan "Lira va qilich" nomli xor qo'shiqlari turkumi (1814), "xor qo'shiqlari" yangi xor janri paydo bo'lishining nishonasi bo'ldi. "Lira va qilich" to'plamidan tashqari, K. M.Veberning xor merosida aralash va erkaklar xorlari, to'qqizta kantata va beshta messa mavjud. K.M.Veber nemis milliy romantik operasining yaratuvchisi hisoblanadi. Uning mazkur janrda yaratgan asarlarida xorlar muhim rol o'ynaydi.

Kompozitor Feliks Mendelson-Bartoldi (1809-1947) xor musiqasi targ'ibotchisi sifatida tarixga kirdi. Bolalik yoshida Germaniyada ilk lidertafel tashkilotchisi K.Zelter rahbarligida Berlin kapellasiga qatnagani kompozitor hayotida yorqin iz qoldirdi. Cherkovda u xor klassikasining eng yaxshi namunalari - D.Palestrina, O.Lasso, F.Gendel, I.S.Bax asarlari bilan tanishdi, bu uning musiqiy dunyoqarashini, shuningdek kelajakda kompozitorlik, ijro va ma'rifiy intilishlarini shakllantirishga yordam berdi. 1829-yilda aynan F.Mendelson rahbarligida ko'p yillik unutilishdan keyin birinchi marta I.S.Baxning "Matfey ehtiroslari" ajoyib asari ijro etildi. Keyinchalik uning boshchiligida F.Gandel, Y.Gaydn, L.Betxoven ning ko'plab ajoyib xor asarlari ijro etildi. F. Mendelson turli xor janrlariga asarlar yaratgan. Yirik xor asarlari orasida "Pavel", "Iliya"" kabi oratoriyalarini, "Maqtov qo'shig'i" nomli simfoniya – kantatasini aytish mumkin. F.Mendelson ijodidagi xor miniatyurasi janri turli xil xor tarkiblari uchun asarlar bilan ifodalanadi, ular orasida aralash xor uchun 28 ta va 21 tasi erkaklar tarkibi uchun yozilgan. Ushbu

asarlarning mazmuni xilma-xil, hissiy jihatdan rang-barang bo'lib, sevgi lirikasi, janr-maishiy, hayoliy obrazlar, ammo musiqiy jihatdan barcha partituralar ohangning hissiy samimiyligi, fakturaning ravshanligi, shaklning uyg'unligi bilan ajralib turadi. Aralash xor uchun eng mashhur asarlari – "O'rmon", "Kuz qo'shig'i", "Erta bahor", "O'rmon qushlari" va boshqalar.

Erkaklar xorlari - yuqorida aytib o'tilganidek, XIX asr g'arbiy Yevropa xor ijrochiligining o'ziga xos xususiyatidir. Mendelson ijodida erkaklar xori uchun nemis shoirlarining she'rlariga bag'ishlangan bir qator ajoyib asarlar ham mavjud. Ular orasida I.Gyote she'rlariga "Turk ziyofatidagi qo'shiq" va "Yoz qo'shig'i", G. Geyne she'rlariga "Dengizda suzish" va "Yaxshi do'st haqida qo'shiq", "I. Eyxendorf she'rlariga "Sayohat qo'shig'i" va "Serenada" yozilgan. F.Mendelson, shuningdek, lidertafel an'analari bilan bog'liq bo'lgan ansambllarni (erkaklar ovozi uchun) ham yaratgan.

Xor san'atining rivojlanishiga nemis kompozitori, musiqiy yozuvchi, tanqidchi, dirijyor Robert Shuman (1810-1856) katta hissa qo'shdi. R. Shumanning ko'p qirrali ijodiy faoliyati xor jamoalari bilan ishlashni ham o'z ichiga olgan (ayniqsa Drezdendagi 1844-1850 yillar davri). R. Shumanning xor asarlari janr va shakl jihatdan xilma-xildir. Yirik asarlari orasida "Ray va Peri" oratoriyasi, "Rekviem po Minone" solist, xor va orkestr uchun, "Atirgulning sargardonligi" - M. Gorn poemasi asosida solistlar, xor va orkestr uchun ertak, to'rt ovozli xor va orkestr uchun messa, xor va orkestr uchun "Rekviyem" kabi asarlarini ko'rsatish mumkin.

Xorlarning obrazli-tematik mazmuni xilma-xil: psixologik jihatdan rang-barang ("Tungi sukunat", "Kechki yulduz", "Bahorga salom"), sevgi lirikasi ("Xayrli tun"), ov qo'shiqlari ("Ov qo'shig'I", "O'rmonda"), xazilsimon ("Temirchi", "G'ozlar") va boshqalar. Ushbu asarlar R.Shumanning lirik kompozitor sifatida iste'dodini to'liq ochib berdi.

R.Shumanning ko'p xorlari o'z mazmuni, obrazlar doirasi, musiqiy ifodaviy vositalari jihatidan Mendelson va ayniqsa, Shubertga yaqin. Ammo yirik vokal-simfonik asarlarida lirik-falsafiy, ba'zida o'tkir psixologik tendentsiyalar ancha kuchli ifodalanadi. Bu "Faustdan sahnalar", "Manfred" va "Rekviem po

Minone"da ko'rinadi. Shuni aytib o'tish joizki, kompozitorning barcha asosiy yirik asarlari ijodining oxirgi davrlarida yaratilgan.

Ajoyib avstriyalik kompozitor, Vena romantik maktabining asoschisi Frants Shubert (1797-1828), ko'plab vatandoshlari singari, bolaligidan xor musiqasini sevib qolgan. Bo'lajak kompozitor dastlabki musiqiy ma'lumotni saroy xonandalari maktabida olgan. Keyin yosh F.Shubert birmuncha vaqt Vena cherkovi xorida qo'shiq kuyladi. Xorda qo'shiq aytish, Y.Gaydn, V.A.Motsart, L. Betxoven kabi kompozitorlar musiqasi bilan tanishish kompozitor va xor ustasi sifatida yanada ijodiy rivojlanishi uchun yaxshi asos bo'ldi.

F.Shubertning xor uchun yaratgan asarlari orasida oltita messa, kantatalar, shu jumladan – "Miryamning g'alaba qo'shig'i", "Stabat mater", 100 ga yaqin xorlar va ansambl bo'lib kuylash uchun asarlar bor. Xor miniatyurasi kompozitor ijodiy merosining muhim qismidir. Shubertning barcha xorlari, musiqa va so'zning uyg'unligi bilan ajralib turadi.

Romantizm xor musiqasining ijrochilik an'analarini shakllanishi, qo'shiq xor texnikasini takomillashtirish XIX asrning G'arbiy Yevropa vokal maktabining yutuqlari bilan chambarchas bog'liq bo'ldi.

Iqtidorli vokal o'qituvchilari orasida o'sha paytda Manuel Garsiya (ota va o'g'il) – Frantsiya, Franchesko Lamperti - Italiya, Lilli Lehman - Germaniya va boshqalar alohida ajralib turardi. Aynan shu paytda ovoz hosil qilish fiziologiyasi bo'yicha jiddiy tadqiqotlar boshlandi va kuylash tovushini shakllantirishni ilmiy asoslashga urinishlar bo'ldi, vokal terminologiyasining asoslari qo'yildi.

Dunyo miqyosidagi professional qo'shiqchilarni tayyorlashdek amaliy faoliyatning ajoyib natijalaridan tashqari, ushbu o'qituvchilar o'zlarining vokal va pedagogik tajribasini umumlashtirgan amaliy maslahatlarni bayon etgan nazariy asarlarni qoldirdilar. Ushbu o'qituvchilar tomonidan vokal sohasidagi eng boy amaliy tajribalari asosida bildirilgan ko'plab fikrlar kelajakda vokal pedagogikasini rivojlantirish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qildi. O'sha davrning risolalarida nazariy jihatdan keltirilgan ba'zi fikrlar ijodiy faoliyatini yangi boshlagan qo'shiqchilar, shuningdek o'qituvchi-musiqachilar uchun foydali bo'lishi mumkin.

XIX asr vokal pedagogikasi ustalarining fikriga ko'ra, kuylash uchun to'g'ri nafasni tashkil etish va hiqildoq bilan ishlashda havo bosimini, kengaytma trubkasi va yuqori rezonatorlarning ishlashi bilan mohirona muvofiqlashtirish qo'shiqchining "ijodiy fantaziyasini" o'zaro bog'laydigan va ilhomlantiradigan qo'shiq uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bilan birga, chiroyli tembrga, yetarlicha kuchga, katta diapazonga, chidamlilikka ega bo'lgan ovoz uchun qorin bo'shlig'i mushaklarining bir vaqtning o'zida rivojlanishi bilan nafas olishning pastki diafragma turini qo'llash kerak bo'ladi. Yaxshi talaffuz - bu asar matnining manosini etkazish uchun zaruriy shartdir. "Aniq talaffuz ovozni yumshoq qilib, tovushni yaxshilashga yordam beradi". Unlilarni shakllantirish alohida e'tibor talab qiladi: "A" unlisi ovozning asosidir. Uni puxta o'rganish boshqa barcha unlilarga, undoshlar, shuningdek, to'g'ri nutqni o'zlashtirishga alohida ta'sir ko'rsatadi.[8]

Yuqorida aytib o'tilgan o'qituvchilarning fikriga ko'ra, faoliyatini endigina boshlagan qo'shiqchilar uchun, taniqli qo'shiqchilarning kuylash usullari va texnikasini ularning kontsertlarida kuzatish alohida ahamiyatga ega.

Romantizmning xor ohangdoshligi yanada kengroq dinamik nyuanslar usullari bilan boyitildi – "ppp" dan "fff" gacha, tovushni filirovkasi texnikasi, badiiy ifodalash maqsadida tembrli palitradan foydalanish va kuylash ovozining tebranishi.

Romantizmning xor san'ati jahon musiqa madaniyati xazinasiga nafaqat turli janrdagi ajoyib xor asarlari, ilg'or topilmalar va ijrochilik amaliyotidagi tendentsiyalar, balki keng ommaning badiiy faoliyati va estetik madaniy qadriyatlar bilan tanishish usullarini namoyish etib, havaskorlik musiqasining turli shakllari bilan ham munosib hissa qo'shdi.

XIX - XX asrlar Frantsiyada paydo bo'lgan va impressionizm ( impression - taassurot) deb nomlangan yangi badiiy oqim bilan ajralib turdi. Impressionizm dastlab rassomchilikda paydo bo'lgan (K. Mone, K. Pisarro, E. Dera, O. Penuar va boshqalar) va keyinchalik boshqa san'atlarda - musiqa va adabiyotda, teatrda

---

[8] Бодишевская Н.Н. История зарубежного хорового искусства М. 2012, 52 b

tarqaldi. Musiqiy impressionizmning eng ko'zga ko'ringan vakillari frantsuz bastakorlari Klod Debussi (1862-1918) va Moris Ravel (1875-1937) edi.

Klod Debussining xor asarlari – "Gladiator", "Noqobil farzand" kantatalari, "Bahor" nomli xor (so'zsiz) va orkestr uchun syuita, XV asr frantsuz shoiri Sharl Orleanning she'rlariga "Sharl Orleanning uchta qo'shig'i" nomli xor uchun a kapella. Kompozitor xor asarlarining musiqiy tili impressionizm musiqasining o'ziga xos xususiyatlarining rang-barangligi va jarangdorligini ta'minlovchi murakkab uyg'unlik(garmoniya) bilan ajralib turadi.

Moris Ravelning xor uchun yaratgan asarlari: "Mirra", "Alcyon", "Alyssa" kantatalari, shuningdek, "Nikoletta", "Uchta jannat qushi" va "Rondo" nomli uchta xor qo'shiqlari bilan aralash xor uchun a kapellasi. Kompozitorning inson ovozining ifodaviy imkoniyatlariga bo'lgan alohida qiziqishining dalili sifatida uning "Dafnis va Xloya" baletiga xorning (so'zsiz) maxsus tanlangani misol bo'la oladi.

XX asrning boshlarida Frantsiyada "Oltilik" deb nomlangan yosh iste'dodli kompozitorlarning musiqiy hamkorligi yuzaga keldi. Ijodiy guruhga Darius Miyo, Lui Dyurey, Jorj Orik, Artur Onegger, Frensis Pulenk, Jermena Tayfer kiradi. Hamkorlikning g'oyaviy ilhomlantiruvchisi kompozitor Erik Sati edi. Jan Kokto ularni ijodining nazariyotchisi va targ'ibotchisi bo'ldi. Xor musiqasi kompozitorlar uchun zamonaviylikning eng dolzarb muammolarini o'zida mujassam etgan eng demokratik janrga aylandi.

Artur Oneggerning (1892-1955) kantata-oratoriya ijodi jahon musiqa madaniyati tarixiga katta hissa qo'shdi. Uning "Shoh Dovud", "Yudif", "Antigona", "Janna d'Ark gulxanda" oratoriyalari, "Rojdestvo kantatasi" xor musiqasining keyingi rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi. Kompozitorning estetik qarashlari XX asr musiqasining yetakchi falsafiy g'oyalari – "abadiy" umuminsoniy qadriyatlarni ifodalovchi yuqori ahloqiy g'oyalarni o'zida mujassam etish istagi bilan uyg'unlashdi.

XX asrda Germaniyaning xor san'atidagi etakchi tendentsiyalar kompozitorlar Paul Xindemit (1895-1963) va Karl Orf (1895-1982) asarlarida yaqqol namoyon bo'ldi.

Paul Xindemit kantata-oratoroya janrlarida beshta yirik asarlar yaratdi. "Das Unaufhorliche" 1931-yilda yozilgan. XX asrning 50-yillarida "Uching, tez farishtalar" nomli kantatasini yaratdi (birinchi ijrosi 1955-yilda bo'lib o'tgan). A capella xori uchun yozilgan xor asarlari orasida Rayner Mariya Pilke frantsuz shoiri matnlari bo'yicha "Aralash xor uchun oltita qo'shiq" tsikli mashhur. Melodik fikrlashning o'ziga xosligi, aniqligi va uyg'unlik(garmoniya)ning yangiligi, metr-ritmik xilma – xillik kompozitor xor asarlariga xos asosiy xususiyatlardir.

Karl Orf XX asrning eng mashhur kompozitorlaridan biri. Uning bolalarni musiqiy tarbiyalash bo'yicha pedagogik tizimi ko'plab mamlakatlarda tan olingan. Musiqiy tarbiya va teatr kompozitor ijodiy faoliyatining ikkita asosiy yo'nalishi hisoblanadi. K.Orf "Karmin Buran" sahna kantatasi (1936), "Katulli Karmin" nomli kantatasi (1943) va "Afrodita g'alabasi" kontsert-kantatasidan (1951) iborat "Zafarlar" nomli turkumi bilan butun dunyoga mashhur bo'ldi.

XX asrda Angliyada xor san'ati o'zining ijtimoiy ahamiyatini yanada mustahkamladi. Folklorga qiziqish 1898-yilda "Xalq qo'shiqlari jamiyati"ning shakllanishiga imkon yaratdi, keyinchalik u "Xalq raqsi va qo'shiqlari jamiyati" deb nomlandi. Xor qo'shiqlarini sevuvchilarning xalq qo'shig'iga, milliy folklorga bo'lgan katta qiziqishi kompozitorlarning ushbu yo'nalishda ijodiy faollashishga imkon tug'dirdi. Ularning bosma nashriyotlar bilan hamkorlikdagi faoliyati havaskor xor jamoalari uchun mo'ljallangan xor uchun moslashtirilgan va qayta ishlangan asarlarini o'z ichiga olgan ko'plab qo'shiq to'plamlarining paydo bo'lishida namoyon bo'ldi.

Mazkur davrda xor musiqasi rivojiga mashhur ingliz kompozitori Benjamin Britten o'z hissasisni qo'shdi. B.Britten ijodida xor uchun asarlar muhim o'rin egallaydi. Eng mashhur asarlari orasida "Te Deum" xor, organ va yakkahon uchun, yakkahonlar, aralash xor, o'g'il bolalar xori va orkestr uchun "Bahor simfoniyasi" (1949), tenor va bariton solo, kichik xor, torli orkestr, fortepiano, arfa va litavra uchun "Xayriya kantatasi" (1963), "Bola tug'ildi" - erkaklar, ayollar va bolalar ovozlari uchun xor variatsiyalari, a kapella (1955) va boshqalar.

Kompozitor ijodining eng yuqori cho'qqisi soprano, tenor va bariton yakkaxon, xor, orkestr, kamer orkestri, o'g'il bolalar xori va organ uchun 1961-yilda yozilgan "Harbiy rekviyem" hisoblanadi. "Harbiy rekviyem" XX asrning barcha musiqiy san'atining rivojlanish xususiyatlarini aks ettiradi. Shuningdek, zamonaviy G'arb san'atining ko'plab tendentsiyalari, yani eski diniy marosim shakllarining tiklanishi va doimiy mavzularga qiziqish aks etgan.

XX asrning o'rtalarida Yevropaning musiqiy maydonida polshalik musiqachilar paydo bo'ldi. Vitold Lyutoslavskiy, Kazimej Serotskiy, Tadeush Byord, Kshishtof Penderetskiy kabi kompozitorlar asarlari yangi ifoda vositalarni, g'ayrioddiy tembrli echimlarni izlash orqali e'tiborni tortadi.

XX asrning so'nggi o'n yilligi musiqadagi polistilistik tendentsiyalarning keng tarqalishi bilan ajralib turadi.

Zamonaviy xor ijrochiligi xalqaro ijodiy aloqalarning keng rivojlanishi bilan ajralib turadi, bu ko'plab festivallar, ijrochilarning professional mahoratining o'sishini rag'batlantiruvchi tanlovlar, shuningdek, yosh avlodning xor ijrosi va qo'shiqchilik ta'limi masalalari bo'yicha nazariy va uslubiy konferentsiyalar o'tkazishda namoyon bo'ladi.

**Kalit so'zlar va terminlar:** barokko, klassitsizm, opera, oratoriya, ehtiros(passion), kantata, klassika, kompozitsiya, kompozitorlik tamoyillari, ariya, messa, rekviyem, romantizm, san'at sintezi g'oyasi, xor miniatyurasi, lidertafellar, "fereynlar" xor birlashmalari, impressionism, polistilistika, politonallik, atonal musiqa, xromatik tizim, aralash janrlar.

**Quyidagi o'quv vazifalarini bajaring**

1. Sizga tanish bo'lmagan atamalar va tushunchalarni ish daftaringizga yozing. Musiqiy entsiklopediyada ularning ma'nosini toping va ularni eslab qoling.
2. Operaning xor san'ati janrlarining rivojlanishiga ta'sirini tahlil qiling.
3. XVII asrda musiqa akademiyalari faoliyati natijasida rivojlangan xor ijrosidagi asosiy tendentsiyalarni aniqlang.
4. Angliya va Germaniyada xor ijrochiligining rivojlanishini tahlil qiling.

5. Gendel, Bax va Motsartni ijodiy novatorligining oratoriya va messa janrlarini rivojlantirishdagi ahamiyatini aniqlang.
6. Y.Gaydn ijodida kantata-oratoriya janrining rivojlanish xususiyatlarini aniqlang.
7. Ma'rifatparvarlikni yetakchi kompozitorlarining kichik xor asarlarida taqdim etilgan obrazli-tematik va musiqiy-ifodaviy vositalarni tavsiflang.
8. Romantizm xor san'atining rivojlanishidagi asosiy tendentsiyalarni ajratib ko'rsating.
9. Xor miniatyuralari, kantata, oratoriya, messa kabi xor janrlarining rivojlanish xususiyatlarini aniqlang.
10. Ijodiy faoliyati xor san'ati bilan bog'liq bo'lgan yetakchi kompozitorlar va ularning xor uchun yaratgan asarlarini eslab qoling.
11. "Impressionizm" badiiy oqimining o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflang. Xor musiqasi janrlariga murojaat qilgan ushbu yo'nalishdagi kompozitorlarni ayting.
12. XX asr musiqasining yetakchi musiqiy va falsafiy g'oyalarini aniqlang.
13. XX asr g'arbiy Yevropa musiqasida kantata-oratoria janrlarida yaratilgan eng yorqin asarlarni ta`riflab bering.
14. XX asrda yaratilgan xor asarlarini xor san'ati sohasida innovatsion deb atash mumkin bo'lgan kompozitorlarning ijodiy portretlarini yarating.

## O'rta Osiyo va O'zbekistonga xor ijrochiligining kirib kelishi

O'rta Osiyo xalqlari hayotida qadim zamonlardan yakka va jamoa bo'lib qo'shiq kuylash an'analari bo'lganligi bizga tarixdan ma'lum. Qahramonlik afsonalari, epik qo'shiqlar O'rta Osiyo xalqlarining o'z mustaqilliklari uchun olib borgan kurashlarining rang-barang tasvirlari bilan to'la. O'zbek xalqi musiqiy merosi qatlamlari mehnat va marosim qo'shiqlaridan tortib murakkab doston, ashula, katta ashula, maqom yo'llarigacha avloddan-avlodga o'tib, ustoz-shogird an'anasi bilan rivojlanib asrlar osha saralanib kelgan. Biz "Yor-yor", "O'lan", "Hashar" kabi mehnat va mavsum-marosim qo'shiqlarini jamoa bo'lib ijro etilganini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, jamoa bo'lib ijro etish darvishlar xonishlarida ham namoyon bo'ladi. Shashmaqomning vokal qismlaridagi taronalar ham xonandalar ansambli tomonidan ijro etilib kelgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida xalq qo'shiqchilik ijodi, professional musiqaning gurkirab rivojlanishi bilangina emas, balki ijtimoiy va madaniy xayotdagi jiddiy o'zgarishlar bilan ham xarakterlanadi. Bu davrda to'garak va jamiyatlar Turkiston o'lkasining ko'pgina shaharlarida — Farg'ona, Marg'ilon, Qo'qon va Samarqandda keng tarqala boshlaydi. Shuningdek, shaharlarda damli orkestrlar konsertlari namoyish etiladi. Aksari hollarda orkestrlarga ularda ishlashni jamoatchilik musiqa faoliyati bilan qo'shib olib boruvchi kapelmeystrlar rahbarlik qilgan. Bunday faoliyat bilan shugullangan musiqachilar orasida N.Mironov, D.Mixaylov, A.Eyxgorn, V.Leysek kabilarni ko'rsatishimiz mumkin.

Toshkentda dastlabki musiqa to'garagi 1870-yil oxirida ochildi. Bu to'garakning tarkibi asta-sekin kengaya bordi va 1885-yilga kelib uning negizida Toshkent musiqa jamiyati tashkil topdi. 1884 – yil musiqa jamiyati tomonidan simfonik orkestr va xor to'garagi tuzildi. V.Leysek xor xavaskorligi to'garagini tashkil etdi. Bu to'garak keyinchalik "Lira" nomini oldi. Shundan so'ng, o'lkaning boshqa ma'muriy markazlarida ham ko'plab to'garaklar ochildi.

XX asrning boshlarida respublika madaniy hayotida bir qator o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Mazkur davrda Respublikamizdagi o'quv yurtlarida, maktablarda raqs va xor jamoalari tuzildi. Shahar va qishloqlardagi maktablarda xavaskorlik teatr, xor to'garaklari tashkil qilindi. 1918 – yilning

aprel oyida ilk musiqa bilim yurti ochildi. Iyul oyida mazkur bilim yurtiga Turkiston Xalq konservatoriyasi nomi berildi. 1924-yil esa mazkur konservatoriya Toshkent musiqa texnikumi nomini oldi. Bu yillarda bolalar badiiy havaskorligi ham keng quloch yoydi. Chunonchi, musiqachi va pedagog V.F.Sakovich rahbarligida Toshkentdagi maktablarning 300 nafardan ziyod o'quvchisini birlashtirgan maktab-teatr jamoasi bo'lib, mazkur jamoa ishtirokchilari maktablarda konsertlar berar hamda spektakllar namoyish etar edilar. Bolalar bilan olib boriladigan musiqa ishlari asosan namuna maktablarida, maktab-internatlarda va chunonchi, Ali Ardobus Ibrohimov badiiy raxbar bo'lgan Zebuniso nomidagi maktab-internatda yaxshi yo'lga qo'yilgandi. Maktab-internat tashkil etilganidan boshlab unda turli to'garak mashgulotlari, shu jumladan musiqa mashg'ulotlari ham olib borilgan. Unda Ibrohim Shoumarov, Abdusoat Vahobov singari mashhur sozanda va xonandalar dars berishgan. Ular o'quvchilarga ashula aytish xamda o'zbek cholg'u asboblarini chalishni o'rgatganlar. Xor to'garagini V.Sakovich va Ali Ardobus Ibroximovlar olib borishgan. 1924-yilda maktab-internatda "San'atchi qizlar" nomli ijrochi jamoa tashkil topadi.

1919-yilda Sh.Shoumarov "Namuna" nomli, 1922-yilda Saodatxonim Yenikeeva o'zbek qizlaridan xor jamoalari tuzdilar. 1934-yilda Toshkentda xavaskorlik san'atining viloyat musiqa badiiy olimpiadasi o'tkazildi. Bunda 1000 kishilik qo'shma xor, 300 kishilik damli orkestr qatnashdi. Bu olimpiada xavaskorlik to'garagi ish faoliyatini ancha ilgarilatdi. 1938-yilda bo'lib o'tgan Respublika olimpiadasida asosan maktab va o'quv yurtlari xor jamoalari qatnashdilar, xavaskorlik to'garaklari son jihatdan ko'paydi. Ikkinchi jahon urushigacha bo'lgan davrda xor jamoalarida unison ijrochiligi hukmron edi. 1950 - yillardan boshlab xor xavaskorligining ko'p ovozlilik turi rivojlana bordi.

1930 - yillarga kelib musiqa xor xavaskorligida yangi burilish paydo bo'ldi. Yangi-yangi asarlar xor jamoalari uchun yaratildi. Y.Rajabiy, I.Ikromov, O.Qosimov, F.Sodiqovlar bir-ikki ovozli xor qo'shiqlari yaratdilar. Yunus Rajabiyning "Bizning qishloq", Faxriddin Sodiqovning "Xormang endi, kolxozchilar" kabi qo'shiqlari xavaskorlik xor jamoalari tomonidan ijro etildi.

Ko'p ovozli xor musiqasining ilk namunalari o'zbek xalq qo'shiqlarining xor aranjirovkalari, o'zbek musiqali drama va ilk o'zbek operalaridagi xorlardan iborat bo'lgan. Mustaqil xor musiqasi asarlari, ya'ni kantata, oratoriya janrlaridagi asarlar 1940—1960 yillarda M.Ashrafiy, S.Yudakov, Ik.Akbarov, M.Burhonov kabi kompozitorlar tomonidan yaratildi. Keyingi yillarda o'zbek va boshqa xalqlar kuylari xor uchun qayta ishlana boshlandi. M.Burhonov, S.Boboyev, B. Umidjonov, N.Sharafiyeva va boshqa kompozitorlar xor uchun asarlarni qayta ishlab samarali ijod qildilar. O'zbekiston kompozitorlaridan B.Lutfullaev, H.Rahimov, M.Bafoev, F.Yanov-Yanovskiy, N.G'iyosov kabilar oratoriya, poema, kantata, xor simfoniyasi va boshqa turkumli asarlar yaratdilar.

1936-yilda Toshkent davlat konservatoriyasi ochildi. Shu yili O'zbek davlat Filarmoniyasi tashkil etilib, uning qoshida xor kapellasi va xalq cholg'ulari orkestri tuzildi. 1952-yilga kelib, O'zbek filarmoniyasi qoshida birinchi professional xor kapellasi tashkil etildi. Kapella uchun M.Burxonov o'zining birinchi jo'rsiz xor qo'shiqlarini yaratdi. Shunday qilib Respublikada a'kapella janri vujudga keldi. Kapella dasturida qariyb barcha qardosh Respublikalar kompozitorlarining asarlari va xalq qo'shiqlari bor edi. Ularning turli xor asarlari konsertlarda yangradi. Aynan shu davrdan boshlab xor ijrochiligi maxsus musiqa ta'limi tizimiga kiritildi va professional jamoalar qatorida o'quv, havaskor, bolalar xorlari keng rivojlandi.

A.Hamidov 1978-yil O'zbek davlat filarmoniyasi qoshidagi xor kapella jamoasiga badiiy rahbar va bosh dirijyor etib tayinlandi. Xor kapellasiga A.Hamidov kelishi bilan bo'sh o'rinlarga tanlov asosida konservatoriya va musiqa bilim yurtlarini tamomlagan yosh, professional xonandalar ishga qabul qilindi. Rahbarning talabchanligi, professional darajada ish ko'zini bilishi jamoaning ijrochilik mahoratini oshirdi. Ish jarayonida A.Hamidovning yonida dirijyor J.Shukurov va bosh xormeyster V.Kaltmanlar yelkadosh bo'lib, jamoaning xor ijrochilik mahoratini yuksalishida katta hissa qo'shdilar. A.Hamidov jamoa dasturini yangi asarlar bilan boyitdi[9].

---

[9] Mansurbekova F. Xor sinfi T., 2020, 33 b

Professional xor ijrochiligi bilan bog'liq bo'lgan a'kapella janri tez sur'atlarda rivojlandi. Masalan: M.Burxonovning "Sari ko'xi baland", "Yorlarim", "Go'zal qizga", "Sayra", "Zarragul", "Bibigul", A.Muhammedovning "Yashna hur Vatan", S.Boboevning "Chaman ichra", "Yali-yali", "Endi sendek" kabi asarlar barcha o'quv xorlari dasturidan o'rin oldi. B.Umidjonovning 100 dan ortiq xalq qo'shiqlari asosida yaratgan a'kapellalari: "Qomuzchi", "Qorasoch", "Ililla yor", "Og'a darom", "Gal bari", "Xurshidi jahon galdi", "Chamanda gul", "Dilbarume" xor syuitasi va boshqa xor asarlari hozirgacha o'quv xorlarida sevib ijro qilinmoqda. O'zbek xor musiqasini yuksalishida o'zbek kompozitorlari tomonidan yaratilgan xor asarlari kelajakda professional xor ijrosining yuksalishiga zamin yaratdi.

1960-yilda tashkil topgan O'zteleradiokompaniyasi qoshidagi Respublikada xizmat ko'rsatgan xor jamoasining ilk rahbari B.Umidjonov bo'lgan. Tashkil etilganda mazkur xorning tarkibi 28 ijrochidan iborat edi. Xor ijrochilariga boshlang'ich musiqa nazariyasi va solfedjiodan darslar tashkil etilgan. B.Umidjonov mazkur xor jamoasi uchun ko'plab asarlar yaratdi. Keyinchalik jamoaga boshqa kompozitorlar ham asarlar yoza boshladilar. Jamoa repetuari xor asarlari bilan boyitildi. Xor jamoasining yil sayin ijrochilik mahorati o'sdi. Kompozitorlar I.Akbarov, S.Yudakov, D.Zokirov, S.Jalil, M.Bafoev va boshqa kompozitorlar ijodiy hamkorlik olib bordilar. 1970-1990 yillarda jamoa tarkibi 60 nafargacha kengayib, xor faoliyati rivojlanib bordi. Jamoa M.Burxonov qayta ishlagan xorlar: "Yorlarim", "Go'zal qizga", B.Umidjonovning "Go'zal", "Ruboyi", "Dugoh" kabi asarlarini yuksak badiiy saviyada ijro etib, radio va televideniya magnit tasmalari oltin fondiga yozib kelindi. 1967-yildan xormeyster sifatida B.Lutfullaev faoliyat yuritdi. 1981-yil xorga "Respublikada xizmat ko'rsatgan xor jamoasi" unvoni berildi. 1993-yildan 2003-yilgacha jamoaga J.Shukurov rahbarlik qildi. 2001-yildan mazkur jamoada dirijyor lavozimida, 2003-2005 va 2010-2013 yillar davomida jamoaning badiiy rahbari va bosh dirijyori lavozimida D.Malikova faoliyat olib bordi. Shu davr ichida 300 dan ortiq xor asarlari magnit lenta tasmalariga yozildi. Hozirgi kunda mazkur jamoaga G.Malikova bosh dirijyor hamda badiiy rahbarlik qilib kelmoqda.

O‘zbekistonda professional xor ijrochiligi XX asrning 70-yillarida to‘la shakllandi deb aytish mumkin. O‘zbek xor ijrochiligi o‘zining bir ovozlik xalq qo‘shiqlaridan tortib, to yirik shakldagi turli janrlarda yaratilgan ko‘povozlik xor asarlarigacha bo‘lgan murakkab rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi.

XX asrning so‘ngi choragida Mutal Burhonov, Sayfi Jalil, Ikrom Akbarov, Botir Umidjonov, Mustafo Bafoyev, Nadim Norxo‘jayev, Baxrullo Lutfullayev, Avaz Mansurov, Dilorom Omonullayeva kabi kompozitorlar, shuningdek, Shermat Yormatov, Naira Sharafiyeva ijodkor xormeysterlar akapella janriga alohida e‘tibor berdilar.

O‘zbekiston bolalar xor madaniyati rivojiga Ye.M.Kenzer, A.Vasileva, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Sh.Yormatovlar katta hissa qo‘shdilar.

Bolalar xor san’ati faol targ‘ibotchisi, O‘zbekiston xalq artisti, “Sog‘lom avlod uchun” ordeni sohibi, O‘zbekiston teleradio kompaniyasi “Bulbulcha” bolalar xorining badiiy rahbari va bosh dirijyori Sh.Yormatovning qo‘shgan xissasi nihoyatda salmoqlidir. Sh.Yormatov doimo xor madaniyati rivojlanishida yangi yo‘llarini izlab topdi. 1970-yillarning o‘rtasida Toshkent shahar 99-maktabida “Boychechak” katta xor guruhi, o‘g‘il bolalar xori, qizlar vokal ansambli tashkil etildi. Yil sayin xor jamoalarining ijrochilik mahorati yuksalib bordi, dasturlari kengayib, konsert chiqishlari ko‘paydi. Maktabning ikkala xor jamoalari “Do, re, mi, fa, sol”, “Kuylang bolalar”, “Birga kuylaymiz”, “San’at g‘unchalari”, “Qo‘shig‘im jon qo‘shig‘im” kabi bolalar televizion dasturlariga jalb etildi. “Boychechak” xor jamoasi O‘zbekiston bo‘ylab gastrollarda bo‘lgan, Finlyandiya, Bolgariya xor jamoalarining festival – tanlovlarida, bir necha marta Estoniyada qo‘shiq bayramlarida qatnashgan. 1970 - yilda xor “Boychechak” xor studiyaga aylanib, “Respublikaning namunali bolalar xor jamoasi” unvoniga sazovor bo‘lgan. Dasturlaridan turli xalq qo‘shiqlari ham o‘rin olgan. Bu jamoa – respublikamizdagi eng mashhur O‘zbekiston teleradio kompaniyasining “Bulbulcha” bolalar xoriga aylandi[10].

“Tomosha” bolalar teatr studiyasi 1988-yilda O‘zbekiston Respublikasi bolalar jamg‘armasi qoshida tashkil etilgan. Mazkur teatr studiyasiga

[10] N.Baxritdinova O‘zbekiston bolalar xor madaniyati – T.: 2002, 47b

O'zbekistonda hizmat ko'rsatgan madaniyat hodimi N.Qurbonova rahbarlik qildi. U xor ijrochiligida xor san'atining yangi imkoniyatlarini izlab topib, bu jarayonda ilhom bilan badiha - o'yin, badiiy ijro usullaridan keng foydalandi. "Tomosha" teatr-studiyasidagi xor ijrochiligi o'ziga xos uslubni tashkil etadi. Bunda qo'shiqlarning asosiy ohang bo'laklari ajratilib, ular asosida bolalarga yaqin bo'lgan o'yin harakatlar o'ylab topilib, o'ziga xos taassurotlarini tug'diradigan xor yozuvi vositalaridan foydalaniladi. Shu bilan birga xalq kuylariga asoslangan vokal-xor mashqlari ham ishlab chiqilgan. "Dahshatli mesh polvon", "Sharq bozori", "Sharq muchali" kabi sahna asarlari teatr-studiyasining repertuaridan o'rin olgan. "Tomosha" teatr-studiyasi nafaqat respublika, balki xorijiy mamlakatlarda ham tanilgan. "Tomosha" teatr studiyasi jamoasi Ashxabodda (1990- yil), Moskva, Gollandiyada (1991-yil) gi bolalar jamoalari festivalida, Turkiya (1992-yil) da bo'lib o'tgan festivalda, shuningdek, Germaniya, Janubiy Koreya festivallarida ham ishtirok etgan.

1998-yilda "Sevinch" vokal ansambli tashkil etilib, o'zining rang-barang dasturi bilan muvaffaqiyat qozondi. Mazkur ansamblning rahbari S.Muzaffarova ko'plab yosh iste'dodlarni ochib berishga muvaffaq bo'ldi. Ularning ko'pchiligi vokal ijrochiligi bilan jiddiy shug'ullandilar. "Sevinch" vokal ansambli 2011-yildan boshlab "Bolajon" telekanalida "Do-mi-sol" bolalar musiqiy dasturida ishtirok etib keldi.

Respublikamizda bolalar xor festivallari, tanlovlarning o'tkazilishi mazkur san'atning rivojlanishiga hissa qo'shdi. Bu yo'nalishdagi yangi tashabbuslar sifatida 1997- yildan boshlab o'tkazilgan "O'zbekiston - Vatanim manim" ko'rik tanlovini ko'rsatish mumkin. Unda barcha maktab xor jamoalari qatnashib, eng zo'r ijodiy namunalarini namoyish etdilar. Mazkur k`orik-tanlov O'zbekistondagi xor san'atining yangi yo'nalishlari – folklor ansambli, akademik va xalq xor qo'shiqchiligining istiqbollarini belgilab berdi.

Bu borada 1998-yil aprel oyida Toshkentda o'tkazilgan va oila yiliga bag'ishlangan "Qo'shiq bayrami" shahar ko'rik –tanlovi diqqatga sazovordir. Unda bir necha umumta'lim maktablar xor jamoalari, shuningdek, internat, gimnaziya, litseylarning bolalar orkestr, xalq cholg'u, vokal, maqom ansambllari va raqs

jamoalari ishtirok etdilar. Ko'rik tanlovning dasturi, asosan O'zbekiston kompozitorlarining yangi asarlari, qayta ishlangan xalq kuylaridan iborat bo'ldi.[11]

Bolalar xor san'atining rivojlanishida ta'lim muassasalarining ham hissalari katta bo'ldi. Bu borada R.Glier hamda V.Uspenskiy nomidagi Respublika maxsus musiqa akademik litseylari, Yu.Rajabiy nomidagi Pedagogika kolleji, Badiiy Akademiya huzuridagi Tasviriy va amaliy san'at litseyi, H.Niyoziy nomidagi Respublika musiqa kolleji va umumiy o'rta ta'lim maktablari hamda musiqa maktablari xor jamoalarining ijodiy faoliyatini aytib o'tish joizdir.

**Kalit so'zlar va terminlar:** lapar, yalla, xor xavaskorligi, aralash xorlar, akademizm, folklor, xalq xori, xormeyster, kapella.

**Quyidagi o'quv vazifalarini bajaring**

1. O'zbekistonda xor san'atining ayrim janrlarining rivojlanishiga sabab bo'lgan asosiy omillarni ko'rsatib o'ting.
2. O'zbekistondagi mashhur xor jamoalarini ayting.
3. Xor uchun yaratilgan asarlarni tahlil qiling.
4. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan xor jamoalarini sanab bering
5. Nechanchi yildan boshlab Respublikamizda xor jamoalari tuzila boshladi? Tushuntrib bering
6. O'zbekistondagi xavaskorlik xorlariga ta'rif bering.
7. O'zbekistonda faoliyat ko'tsatayotgan professional xorlarning ijodiy faoliyatiga ta'rif bering.
8. Zamonaviy xor san'atining shakllarini ayting.
9. Havaskor xor jamoasi bilan musiqiy va tarbiyaviy ishlarning shakllarini ayting.

[11] Baxritdinova N.A. O'zbekiston bolalar xor madaniyati 2002. 60b.

AXAD XAMIDOV



BOTIR UMIDJONOV



BAXRULLO LUTFULLAYEV



YEVGENIY NECHAYEV



SHERMAT YORMATOV



JO'RA SHUKUROV



SULAYMON SHODMONOV



QODIR MIRZAYEV



LYUBOV JUMAYEVA



NAIRA SHARAFIYEVA



DILBAR MALIKOVA



GULBAHOR MANSUROVA



## II bob
## XOR IJROCHILIGINIG NAZARIY ASOSLARI VA VOKAL-XOR TARBIYASI

### Xor tarkibi va turlari

Xorning tuzilishi, birinchi navbatda, uning turi va tashqi ko'rinishi bilan belgilanadi. Xor turi - bu kuylovchi ovozlarining tarkibiy qismlariga xos xususiyatdir. Ijro amaliyotida quyidagi xor turlari keng tarqalgan:

- bir turdagi (ayollar, erkaklar, bolalar);
- aralash (erkaklar va ayollar)

Xor turi uning tarkibiga kiruvchi xor partiyalari soniga qarab ko'rsatiladi. Bunga asoslanib, xorlar bir ovozli, ikki ovozli, uch ovozli, to'rt ovozli bo'ladi. Har bir turga xorning o'ziga xos ko'rinishi mos keladi.

Bir turdagi xorlarda ikkita asosiy partiya mavjud: yuqori ovozlar (bolalar xoridagi diskantlar, ayollar xorida soprano, erkaklar xorida tenorlar) va quyi ovozlar (bolalar va ayollar xorida alt, erkaklar xorida bas).

Bir turdagi xorlarning elementar ko'rinishi – bu ikki ovozlik:

Bolalar xorida – D (diskant) + A (alt)

Ayollar xorida – S (soprano) + A (alt)

Erkaklar xorida – T (tenor) + B (bas)

Aralash xorlar to'rt asosiy partiyadan iborat - soprano, alt, tenor, bas. Shuningdek partiyalarning bo'linishi (divizi) natijasida ovozlar ko'payadi. Bo'linishlar doimiy va vaqtinchalik bo'lishi mumkin. Doimiy bo'linishda har bir ovoz mohiyatan mustaqil xor partiyasiga aylanadi:

SI+SII+A (uch ovozli ayollar xori)

TI+TII+BI+BII ( t'ort ovozli erkaklar xori)

CI+CII+AI+AII+TI+TII+BI+BII (sakkiz ovozli aralash xor)

Vaqtinchalik bo'linishlarda partiyalar vaqti-vaqti bilan bo'linadi va paydo bo'lgan yangi ovozlar bo'ysunuvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Bunday bo'linish divizi (italyancha divisi - bo'lingan) deyiladi. Bir turdagi xorlar ham, aralash xorlar ham to'liq va to'liqsiz tarkibda bo'lishi mumkin. To'liq tarkibli xor ushbu xor turiga xos bo'lgan barcha xor partiyalarini o'z ichiga oladi. To'liq bo'lmagan xor ushbu xorga xos bo'lgan ba'zi partiyalardan iborat bo'ladi.

Bolalar ovozlari: yuqori (soprano, diskant) va quyi (alt).

*Diskant* - yuqori bolalar ovozi. U harakatchanligi, moslashuvchanligi va shu bilan birga turli xil ohanglarni ifodali ijro etish qobiliyati bilan ajralib turadi. Diskant diapazoni: $c_1 - g_2$. Ko'pincha diskant $a_2$- $h_2$ va hatto $c_3$ ni oladi. $H_{kich}$ ijro uchun murakkab bo'lib, uni ehtiyotkorlik bilan va kamdan-kam hollarda qo'llash kerak.

*Alt* - bolalarning quyi ovozi. Quyuq tovushi bilan ajralib turadi. Mayin, nozik va ayni paytda kuchli bo'lishi mumkin. Alt diskantga qaraganda kam harakatchan, ammo ohangdor chiziqlar ham yorqin va ifodali eshitiladi. Alt diapazoni: $g_{kich} - f_2$

Bolalar xorida repertuarni to'g'ri tanlash juda muhimdir. Qulay tonalliklardan va ovozlarning o'rtacha tessiturasidan foydalanish kerak. Juda yuqori va past registrlar bolalar ovozi uchun xavflidir.

***Bir turdagi bolalar (ayollar) xorining joylashtirilishi***

a)




в)




***Bir turdagi erkaklar xorining joylashtirilishi***



*Aralash xorning joylashtirilishi*

| | |
|---|---|
| Tenor | Bas |
| Soprano | Alt |

Xor ijrochiligi amaliyotida sahnada xor joylashuvining turlicha variantlari mavjud. Masalan:

***Bolalar (ayollar) xorining joylashuvi***

| | | | |
|---|---|---|---|
| Soprano II | Soprano I | Alt I | Alt II |
| Soprano II | Soprano I | Alt I | Alt II |

**Bolalar xorining yosh xususiyatlari**

Bolalarning ovoz apparati anatomik va morfologik tuzilishi bilan kattalardan farq qiladi. Bolalarda ovoz burmalari qisqaroq va ingichka, o‘pka kichik hajmda, nafas yo‘llarining va hiqildoqning tog‘ayi egiluvchan bo‘ladi. Ularning ovoz tembri jarangdorligi, o‘ziga xos yengilligi bilan ajralib turadi.

Odatda bolalar xor guruhlari yoshiga qarab uch guruhga bo‘linadi:

- Kichik xor: 7 yoshdan 10 yoshgacha. Ular uchun odatda ovoz tembrining yengil yangrashi, kichik diapazon ($c_1$- $d_2$. $e_2$ ) xosdir Bu yoshdagi o‘quvchilarning ovozlarida, o‘g‘il va qiz bolalar o‘rtasida sezilarli farq bo‘lmaydi.
- O‘rta xor: 11 yoshdan 13-14 yoshgacha. Diapazon biroz kengayadi: $c_1$ – e $(f)_2$ O‘g‘il bolalar va qizlarning ovozlarida malum darajada farqlanish kuzatiladi. Qizlarda ayol tembrining rivojlanishi, o‘g‘il bolalarda esa ko‘krak ohanglari seziladi. Soprano partiyasi diapazoni: c $(d)_1$ - f $(g)_2$
  Alt partiyasi diapazoni: $h_{kich}$ - d $(e)_2$.

- Katta xor: 15-17 yosh. Aksariyat hollarda o'spirinlarning ovozlari to'liq shakllangan bo'ladi. Ularning ovozlarida bolalar ovozi elementlari kattalar ovozi bilan aralashadi. Tembrga nisbatan individual farqlar aniqlanadi. Diapazon sezilarli darajada kengayadi (1,5-2 oktavagacha). Qizlarda ovoz shakllanishi tugaydi. O'g'il bolalar mutatsiya davrini boshdan kechirishadi va shuning uchun kamdan-kam hollarda bu yoshda xorda kuylashadi. Keyingi davrda bolalarning ovozlarida mutatsiya davri boshlanadi.

*Mutatsiya*[12] – bu balog'at yoshidagi ovozning o'zgarishi (14-15 yoshdagi o'g'il bolalarda, qizlarda – 13-14 yoshda), bu hiqildoqning tez o'sishi bilan bog'liq. Ushbu davrda hiqildoq hajmi o'g'il bolalarda uchdan ikki qismga, qizlarda uchdan biriga ortadi. Shunga ko'ra, ovoz mutatsiyasi o'g'il bolalarda keskinroq namoyon bo'ladi. Mutatsiya paytida o'g'il bolalarning ovozi oktavadan ko'proqqa pasayadi, bolalar diskanti yoki altidan erkakning ovozi(tenor, bariton yoki bas)ga aylanadi. Ushbu davrda ovoz ko'pincha buziladi, past tovushlardan baland tovushlarga kutilmagan o'tishlar, ovoz tez-tez xirillab, yoqimsiz, o'tkir tembrga ega bo'ladi. Qizlarda bolalarda ayollarning soprano yoki kontralto ovoziga o'tish ovozni o'rtacha ikki tonga tushirish orqali kechadi. Qiz bolalarda ovoz mutatsiyasi davri o'g'il bolalarga qaraganda tinchroq o'tadi va odatda ovoz funktsiyasining sezilarli buzilishlariga olib kelmaydi. Shuning uchun, ba'zi mualliflar mutatsiyaning ovozni buzish tushunchasi faqat o'g'il bolalarga tegishli va bu davrda qizlarda mutatsiya emas, balki ovoz evolyutsiyasi ro'y beradi deb hisoblaydilar.

N.Orlova bu borada boshqacha fikrda: "Mutatsiya nafaqat ovozning o'zgarishi, balki kelajakdagi erkaklar va ayollar uchun o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, o'sayotgan organizmning butun fiziologiyasini o'zgartirishning chuqur jarayonlaridir. Shu munosabat bilan, bolalar ovozining tembri ham shunga mos ravishda o'zgaradi, bu jins belgilarini tavsiflaydi"[13].

---

[12] Lotin tilidan tarjima qilinganda "mutatsiya" "o'zgarish" yoki "yangilanish" degan ma'noni anglatadi.

[13] Орлова Н.Д. Развитие голоса девочек. — М., 1960. 53

Mutatsiya davridan keyin bolalarning past ovozidan (alt) kattalarning yuqori ovozi (tenor, soprano) va aksincha, bolalarning diskant ovozidan kattalarning bas ovozi hosil bo'lishi mumkin.

Mutatsion davrning davomiyligi odatda bir yoki bir necha oydan 2-3 yilgacha o'zgarib turadi. Uning odatdagi davomiyligi bir yarim yil atrofida bo'ladi. Mutatsiya davrida bolalarning, ayniqsa o'g'il bolalarning ovozini asrash, baland ovozda o'qish, tadbir va kontsertlarda chiqishlarning oldini olish kerak. Mashg`ulotlarni ehtiyotkorlik bilan kichik diapazonda, kuylashning turli xil usullaridan foydalangan holda o'tish kerak. Ammo bu davrda qo'shiq aytishdan to'liq ozod qilish yaxshi natijalarni bermaydi. Ba'zida ovozning patologik mutatsiyasi ham kuzatiladi: erta (10-11 yoshda), kechki (19-20 yoshda), cho'zilgan (ba'zan 3-5 yil davom etadi). Normadan bunday og'ishlar odatda endokrin kasalliklarda sodir bo'ladi. Patologik mutatsiyaning barcha holatlarida vrach-endokrinolog ko'rigiga borish lozim.

Musiqa o'qituvchisi bolalar tanasidagi har qanday o'zgarishlar nafaqat uning umumiy jismoniy rivojlanishi va ovoz apparatining o'sishi, balki asab-aqliy sohasi, yurak-qon tomir va nafas olish tizimlariga ham tegishli ekanligini yodda tutishi kerak. Ularning xarakteridagi keskin o'zgarishlar, xulq-atvor, kayfiyat, did, shuningdek ishga layoqatning pasayishi ham shu bilan bog'liq, bu qo'shiq aytishni o'rganish jarayonida tez charchashda namoyon bo'ladi.

### O'quvchilarning musiqiy qobiliyati va ovozini aniqlash usullari

Umumiy o'rta ta`lim maktablarida xor ijrochiligi musiqa darslari va sinfdan tashqari ishlarda amalga oshirilishi mumkin. Bu maktab o'quvchilarini musiqiy madaniyatining bir qismi sifatida qaraladigan vokal-xor madaniyati asosini shakllantirishga qaratilgan. Umumiy o'rta ta`lim maktabi o'quvchisining vokal - xor madaniyati quyidagi ko'rsatkichlarda namoyon bo'ladi:

- qo'shiq kuylarini to'g'ri intonatsiya qilish
- asarlarning badiiy xususiyatini tushunish va ularning ijro sifatini baholash qobiliyati

- vokal san'atining eng yaxshi namunalarini tinglash va o'zining qo'shiq kuylashidan zavqlanish

O'quvchilarning vokal-xor madaniyatini shakllantirish nafaqat o'zining qo'shiqchilik faoliyati jarayonida, balki musiqa tinglash, musiqiy savodxonlikni o'zlashtirishda, musiqiy ifoda vositalari va musiqiy materialni rivojlantirish usullarini tushunish, bolalar musiqa asboblarini chalishni o'rganish jarayonida ham amalga oshiriladi.

Maktab o'quvchilarining qo'shiqchilik faoliyati vokal-xor ishining jiddiyligiga psixologik munosabatni shakllantirishdan boshlanadi va quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi: bilaman, tinglayapman, takrorlayman, talqin, vokal improvizatsiya. Ushbu bosqichlarning barchasi har bir dars tarkibida bo'lishi kerak.

Bolalarni birinchi bor eshitib ko'rganda shoshilinch xulosalar chiqarmaslik kerak, chunki individual psixologik farqlar tufayli bolalar o'zlarining musiqiy qobiliyatlarini turlicha namoyish etishlari mumkin. Ilk bor eshitib ko'rganda musiqiy eshitish qobiliyati aniqlanmagan o'quvchi vaqt o'tishi bilan musiqaga jiddiy qiziqishi paydo bo'lishi , ongli ravishda musiqiy qobiliyatlarini yaxshilashga intilishi mumkin. Holbuki dastlab iqtidorli bo'lgan bola esa eshitganini kuylay oladi, lekin bundan ortig`iga intilmaydi. Shuning uchun xorga bolalarni tanlashga mas'uliyat va ehtiyotkorlik bilan yondashish kerak. Avvalombor, rahbar ko'p chalishi, suhbatlashishi, shuningdek, bolani musiqaga yaqinlashtiradigan tabiiy yo'llarni topishi kerak.

Xor jamoasiga qatnashadigan bolalarni tinglash, ularning ovozi va qobiliyatini aniqlash odatda bola bilan individual muloqot sharoitida bo'ladi. Avvalambor quyidagilarni aniqlash muhim:

- musiqiy eshitish qobiliyati
- eshitish va ovoz o'rtasida koordinatsiyaning mavjudligi
- ovoz diapazonining kengligi
- musiqiy xotira

O'quvchilarning musiqiy qobiliyatini aniqlash uchun ritmik mashqlarni chapak chalish tarzida qo'llash kerak bo'ladi. Musiqiy xotira va intonatsiyaning

sofligini aniqlash uchun esa murakkab bo'lmagan qisqa musiqiy iboralarni qo'llash mumkin. Musiqiy eshitish sifatini baholash uchun esa boladan o'qituvchining ovozidan yoki fortepianoda chalingan tovushlarni takrorlashni so'rash kifoya qiladi. Agar bola berilgan tovushni to'g'ri takrorlay olmasa, undan ketma-ket ijro etilgan ikkita tovush balandligidagi farqni eshitib aniqlashni so'raladi. Agar u vazifani uddalagan bo'lsa, demak, bu bolada tovush balandligini his qilish borligini, ammo eshitish qobiliyati va ovoz shakllanishi o'rtasida muvofiqlik yo'qligini ko'rsatadi.

## Kuylash nafasi

Vokal-xor malakalari xor asarining badiiy mazmunini aniqlashda asosiy vosita hisoblanadi. Shu sababli xor ishtirokchilarining yuqori ijrochilik madaniyatini tarbiyalash uchun vokal-xor texnikasini doimiy ravishda takomillashtirib borish lozim. Vokal-xor texnikasini shakllantirishning asosi to'g'ri kuylash nafasi hisoblanadi.

Ko'pgina xor arboblarining fikriga ko'ra, bolalar kattalardagi kabi aralash ya'ni, ko'krak-qorin nafasi (havo ko'krak qafasiga tushib, diafragmani tushiradi, pastki qovurg'a va qorinning old devorini kengaytiradi) dan foydalanishi kerak. Biroq, fiziologiya sohasidagi boshqa mutaxassislar nafas olishning bu turi bolalarning sog'lig'iga zarar etkazadi va ularning ovozining tembrli tovushiga salbiy ta'sir qiladi deb hisoblaydilar.

Ko'krak-qorin nafas olish turi haddan tashqari ko'p miqdordagi nafas olish havosi uchun sharoit yaratadi. Bu o'pkaning giperventiliyasiga va qonning kislorod bilan to'yinganligiga olib keladi. Natijada, bolalarda bosh aylanishi hissi paydo bo'lishi mumkin va ba'zi hollarda hatto xushini yo'qotishiga olib keladi.

Fonatsion nafas chiqarish paytida haddan tashqari katta miqdorda nafas olish pastdan halqumga ortiqcha havo bosimini keltirib chiqaradi, bu esa uning yuqoriga siljishiga olib keladi. Ushbu holat qo'shiq aytayotganda tovushni kuchlantirish, jadallashtirish (forsirovaniye)ning yuzaga kelishiga sababchi bo'ladi. Binobarin, tovush xujumidan oldin olinayotgan havo hajmi har doim kichik yoki hech bo'lmaganda o'rtacha bo'lishi kerak.

Albatta, o‘qituvchi o‘zining tushuntirishlarini har bir o‘quvchi qanchalik darajada tushunganligini nazorat qilishi va tekshirishi kerak. Qanday qilib to‘g‘ri nafas olish kerakligini, o‘qituvchi albatta o‘zi ko‘rsatib berishi lozim. Kichik qo‘shiqchilar odatda aralash tarzda, ya’ni burun va og`iz bilan, yelkalarini ko‘tarmasdan va pastga tushirilgan mutlaqo erkin qo‘llar holatida nafas olishlari kerak.

Nafas bitta musiqiy iborani ijro etish uchun yetarli bo‘lishi lozim. Yetarli bo‘lmagan yoki ortiqcha olingan havo ijro sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Nafas chiqarish kuylashda sekin, tejamli va bir maromda bo‘lishi lozim.

To‘g‘ri nafas olish va chiqarishni mashq qilish uchun xor ijrochilari o‘z-o‘zini nazorat qilishni bilishlari zarur. Kuylashda to‘g‘ri nafas olish ko‘nikmalarini shakllantirish bosqichma-bosqich va juda asta-sekin sodir bo‘ladi. Vokal-xor uslubiyotida to‘g‘ri kuylash nafasi ko‘nikmalarini shakllantiruvchi juda ko‘p mashqlar mavjud. Ularni shartli ravishda ikki guruhga bo‘lish mumkin.

Birinchi guruhga kuylashdan alohida bajariladigan mashqlar kiradi. Bunday mashqlardan eng ko‘p tarqalgani dirijyorning qo‘liga qarab nafas olish va nafas chiqarish, shuningdek qo‘shiqchining qo‘llari bilan pastki qovurg‘alarning harakatini sezish orqali nafas olish xarakterini aniqlash vazifalari kiradi. Mashqlami bajarishga turli xil assotsiativ qiyoslashlarni jalb qilish yordam beradi. Masalan, nafasni shunday olish kerakki, xuddi gulning hidini his qilish uchun olgandek bo‘lishi yoki nafasni shunday chiqarish kerakki, yoningizda yonib turgan sham o‘chib qolmasin va x.k.

Kundalik mashg‘ulotlar jarayonida bolaning nafasi asta-sekin qo‘shiq jarayoni bilan bog‘liq holda tanasi uchun yangi bo‘lgan sharoitlarga moslashadi. To‘g‘ri kuylash nafasi ko‘nikmalarini shakllantirish bosqichma-bosqich va juda sekinlik bilan sodir bo‘ladi. Bunda quyidagi nafas olish mashqlarini qo‘llash mumkin:

- burun bilan sekin nafas olish - erkin nafas chiqarish
- burun bilan sekin nafas olish – o‘qituvchi oltigacha sanagunicha “f” yoki “s” undoshlarida sekin nafas chiqarish
- burun bilan qisqa nafas olish - o‘rtacha tezlikda nafas chiqarish.

Ushbu keltirilgan nafas mashqlari nafaqat to‘g‘ri nafas olish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun, balki kuylashdan oldin ovoz apparatini qizdirish uchun ham juda foydali va shu bilan birga ovoz sozlash jarayonini tezlashtiradi.

Ikkinchi guruhga amaliyotda keng qo‘llaniladigan, ko‘p sonli turli xarakterdagi melodik mashqlar kiradi.

Boshlang`ich mashqlar ovozni qizdirish va xor jamoasi ijrochisini faol kuylashga tayyorlash maqsadida amalga oshiriladi. Sadolanishning davomiyligiga erishish uchun jamoa a’zolarini quyidagilarga o‘rgatish lozim:

- har bir xonanda ikki yonidagi ijrochi kuylayotganda nafas olishi kerak. Zanjirli nafasda ijrochilar guruhi bir vaqtda nafas olishi mumkin emas. Agar bu qoidaga amal qilinmasa tovush yangrashida uzilishlar bo‘ladi.
- nafas olish uchun kuylashni to‘xtatgan qo‘shiqchi xorga sezdirmasdan qo‘shilishi lozim
- nafas olish odatdagidan ko‘proq bo‘lishi kerak.

Zanjirli nafas olish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun major yoki minor gammasini uzun cho‘zimlarning o‘rtasida navbatma-navbat nafas olish qo‘llaniladi.



Bir tekis, tejamli nafas chiqarish ko‘nikmalari ustida ishlash uchun keng va ravon mashqlarni kuylash foydalidir. *Legato* ijrosiga erishish uchun quyidagi mashq qo‘llaniladi:




Punktir ritmda, murakkab talaffuz talab qiladigan asarlarni ijro etish uchun nafas faol hamda tejamli bo‘lishi zarur. Buning uchun qisqa cho‘zimlar, pauzalardan, shuningdek, turli xil zarba (shtrix)lardan iborat bo‘lgan mashqlar qo‘llaniladi.



mi - ya - mi - ya



da de di do du

Kichik yoshdagi xor guruhlarida kuychan va hajman kichik mashqar qo‘llaniladi. Xor rahbari turli so‘z bo‘g‘inlaridan ham foydalanishi mumkin.

## Xor sozi

Xor sozi asosan ikki turli, yani melodik-gorizontal soz va garmonik-vertikal soz bo‘ladi. Tovushlarning ketma-ket ijro etilishida lad pog‘onalari, intervallar va akkordlarni to‘g‘ri intonatsiyasi melodik yoki gorizontal soz deb ataladi. Xor jamoasini sozlashning o‘lchov birligi kamertonda birinchi oktava “lya” hisoblanadi. Kuylashda zonaviy soz ishlatiladi. Uning mohiyati shundaki, ijro etilayotgan tovush ma'lum bir temperatsiyalangan balandlikdan chetga chiqishi (og‘ishi) mumkin. Tovushning 1/3 tongacha ikki tomonga chetga chiqishi eshitish sezgilarining sifatiga ta'sir qilmaydi. Ma`lumki, birinchi oktava lya tovushi bir sekundda 435-440 tebranishda seziladi. Bu balandlikdan katta bo‘lgan og`ishmalarda lya tovushi sadolanishning oraliq zonasida bo‘lgani sababli xuddi sof emasdek (falsh) seziladi. Sadolanishning asosiy va oraliq zonalarini aniqlashda tovushlarni chiqarishda yuqori, mo‘tadil va quyi intonatsiyalarni farqlovchi intonatsya qilish qoidalariga asoslanadi. Mazkur qoidalar ilk marotaba P.Chesnokovning “Xor va uni boshqarish” kitobida tizimlashtirilgan va umumlashtirilgan. Uning ta'limotiga ko‘ra, major va minor ladlarinig turli pog‘onalari har xil intonatsiyalanadi va quyidagicha ko‘rinishda bo‘ladi.[14]




[14] Богданова Т.С. Основы хороведения – М., 2009 , 74




Ko'satgichlar (strelkalar) ladning har bir pog'onasini qanday intonatsiya qilish lozimligini ko'rsatadi:

→ - turg'un intonatsiya qilinadi;

↑ - baland intonatsiya qilinadi;

↓ - past intonatsiya qilinadi.

Sof intervallar turg'un intonatsiya qilinadi:




s.1 s.4 s.5 s.8

Kichik va katta intervallar bir tomonlama torayish yoki bir tomonlama kengaytirish bilan intonatsiya qilinadi:




kich.2 kich.3 kich.6 kich.7




kat.2 kat.3 kat.6 kat.7

Orttirilgan va kamaytirilgan intervallar ikki tomonlama torayish yoki ikki tomonlama kengaytirish bilan intonatsiya qilinadi:




kam.5 kam.5 ort.4 ort.4

Xor jamoasi rahbari va xor ijrochilari xorda sof sozni shakllantirishning asosiy qoidalaridan xabardor bo'lishi va ularni amaliyotda qo'llashni bilishi lozim. Bu qoidalarni bilish qo'shiqchilarning musiqiy eshitish qobiliyatini ishga solib, texnik jihatdan murakkab bo'lgan asarlarni qiynalmay maromida ijro etishga yordam beradi. Lekin amaliyotda qo'llanilgan bunday qoidalar barcha asarlar ijrosiga birdek to'g'ri kelmasligi mumkin. Chunki, intonatsiya qilish variantlari turlicha bo'lib, asarning garmonik jo'rnavozligi, modulyatsiya, fakturaning ko'rinishi, xor partiyalarining bayoni tessitura jihatidan qulay yoki noqulayligiga bog'liq bo'ladi.

Xor jamoasi rahbari xorning sof intonatsiya ko'nikmalarini rivojlantirishi lozim. Xorning sof intonatsiya ko'nikmalarini shakllantirish doimiy mashaqqatli va tizimli mehnatni talab qiladi. Xorda melodik va garmonik soz ustida ishlash texnikasi juda xilma-xildir. Xor ijrochiligi amaliyotida ushbu ishni uslubiy jihatdan metodik to'g'ri bajarishga imkon beruvchi ko'plab xor mashqlari mavjud. Har bir xor rahbari o'z amaliyotida sinab ko'rilgan usullaridan foydalanadi.

Xorda sof sozni shakllantirish sof unisonni shakllantirishdan boshlanadi. Dastlabki bosqichlarda unison ohanglarni jo'rsiz yoki fortepianoda garmonik jo'rlikda kuylash kerak. Shu bilan birda alohida murakkab va noqulay musiqiy bo'laklarni mashq qilib asarni o'rta dinamikada o'rganish lozim.

Garmonik soz ustida ishlanganda xor asarlarini og'izni yumib ijro etish usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu esa xor ijrochilarining musiqiy eshitish qobiliyatini va uni ijro sifatini tahlil qilishga yo'naltirish imkonini beradi.

Xorda yaxshi sozni shakllantirish jarayoni davomiylik, murakkablik va mashaqqatliligi bilan ajralib turadi. Bu ishda muvaffaqiyat xor ijrochilari hamda rahbarning o'zaro masuliyati, birgalikdagi faol harakatlari, ishga qiziqishi va mashg'ulotlarning muntazamligiga bog'liqdir.

Xorni sozlash bolalarni tarbiyalaydi va nafas olish, tovush hosil qilish, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish kabi asosiy qo'shiqchilik ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Xor rahbari to'g'ri nafas olish, tovush hujumi va diksiyani shakllantirish uchun bolalar bilan turli xil mashqlarni bajarishi kerak.

Avvalombor, bolalar har bir mashqning maqsadini yaxshi tushunishlari lozim, keyingi o'tiladigan mashg'ulotlarda ularning bajarilish sifati yaxshilanib boradi.

Xorda ovozni sozlash turli vazifalarni bajaradi:

- xor a'zolarining ovoz apparatini qo'shiq aytishga tayyorlash;
- jamoani "sozlash", uni ish holatiga keltirish, mashg'ulot ishlariga tayyorgarlik;
- xor ijrochilarning melodik va garmonik eshitish qobiliyatini rivojlantirish;
- xor diapazonini kengaytirish;
- vokal-xor malakalari, xor asarlarida uchraydigan murakkab iboralar ustida ishlash;

Sozlash usullari quyidagicha:

- xor partiyalarini, xor guruhlarini, butun xorni sozlash;
- muayyan unlilar, so'zlar, "og'izni yumib" sozlash;
- turli temp, ritm hamda dinamikada sozlash;
- turli xil shtrixlar asosida sozlash (staccato, marcato, legato);

## Xor ansambli

Ansambl so'zi frantsuz (ensemble) tilidan olingan bo'lib, birgalikda degan ma'noni anglatadi. Musiqada ansambl tushunchasi bir nechta ma'noga ega. Ansambl:

- bir nechta qo'shiqchilar yoki cholg'uchilar tomonidan musiqiy asarni birgalikda ijro etish;
- turli xil san'at (masalan musiqa, xoreografiya) ijrochilarini birlashtirgan jamoa-qo'shiq va raqs ansambli;
- birgalikda ijro etishda badiiy birlik, ijro etishning barcha tarkibiy qismlarining izchilligi, uyg'unlik. Bu ma`noda jamoaviy ijroga xos bo'lgan eng muhim sifatlarini birlashtirgan va uning o'ziga xosligini ifoda etgan xor ansambli tushunchasi ko'rib chiqiladi.

"Xor ansambli individualliklarning organik birlashishini, o'z partiyasi va umuman xorni eshitish qobiliyatini, o'z ovozini umumiy sadolanishga

tenglashtirishni, yetakchi ohangdor ovozdan jo'rnavozga tezda o'tishni anglatadi. Bu ko'nikmalarning barchasi faqat xorda uzoq vaqt qo'shiq aytish jarayonida shakllanadi va qo'shiqchi-ansamblchining kasbiy mahoratining asosini tashkil etadi"[15].

Talabalarning musiqiy eshitish qobiliyati o'z xonishlarini umumxor va ansambl jarangi bilan koordinatsiyalashlari uchun aynan unga qaratilgan bo'lishi kerak. "Xor jamoasida har bir qatnashchi o'zini qimmatliman, deb his etmagunicha yaxshi ansamblga erishmaydi".[16]

Amaliy mashg'ulotda xor ansambli unsurlariga (fakturali, metr-ritmik, templi, dinamik, tembrli) ohang, uyg'unlik, polifoniya, ritm, temp, dinamika, tembr kabi xor sadolanish sifatlarining bir-biriga to'liq mosligi, uyg'unligi bilan erishiladi.

*Fakturali ansamblda* xor ansambli asarning faktura xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Asarni ijro etish paytida ayrim xor partiyalarining roli bir xil bo'lmasligi mumkin va ular ijro etayotgan musiqiy materialning muhimlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Hammasidan ko'ra muhim musiqiy-tematik materialni ijro etadigan partiya jo'rnavozlik rolini ijro etayotgan partiyadan dinamik tomondan yorqinroq ajratilgan bo'lishi kerak.

*Metr-ritmik ansambl.* Xorda metr-ritmik ansambl ustida ishlash odatda qo'shiqchilarda pulsatsiya hissini rivojlantirish, kuchli va kuchsiz hissalarning almashinishi, so'ngra cho'zimlarning o'zaro bog'lanish, izchilligi hissini tarbiyalashdan boshlanadi. Xorda metr-ritmik ansamblning shakllanishi qo'shiqchilar o'rtasida bir vaqtning o'zida nafas olish, kuylashning boshlanishi (muqaddima) va tovushni uzish (tugatish), turli metr va ritmik guruhlarni o'zlashtirish ko'nikmalarini tarbiyalash bilan chambarchas bog'liq.

*Xorning temp(sur'at) ansambli.* Temp xor asarida muhim ifoda vositadir. Asarning suratidan chetga chiqish asar xarakteri, musiqiy obrazning buzilishiga olib keladi.

*Unison ansambli.* Unison ansamblining asosi har bir xor partiyasi ovozlarining sifatli tarkibi bo'lishi kerak. Ushbu ish shunday vazifalarga, ya'ni

[15] О.П.Кесриг. Хороведение – С-П.: 2004. 37
[16] L.Djumayeva, N.Sharafiyeva. Xor sinfi va kamer xor – T., 2017. 5b.

xorda kuylovchilarning vokal eshitish qobiliyatini rivojlantirish, o'z ovozining sadolanishini yonma-yon o'tirganlarning ovoziga moslashtirish qobiliyatiga asoslanishi kerak. Bu ohanglarning birlashishiga, tovushni chiqarish va uni boshqarish uchun bir xil uslubning shakllanishiga olib keladi.

*Dinamik ansambl.* Dinamik ansambl ustida ishlayotganda, xor rahbari har bir jamoaning o'z diapazoni, ovoz kuchi chegarasi borligini, ovozlar erkin va tabiiy ravishda eshitilishini bilishi kerak. Bunda piano, forte dinamikasini bajarish mahoratini shakllantirishga va tovush kuchini asta-sekin oshirish yoki pasaytirish qobiliyatiga e'tibor berish kerak. Fortissimo dinamikasiga ovozni majburlash orqali erishmaslik kerak. Har qanday ortiqcha bosim kuylash ovozining tabiatiga zid bo'lib, ansamblni buzadi.

## Diktsiya

Xorda yaxshi diktsiyaga erishishning asosiy shartlaridan biri, birinchi navbatda, ijrochilarning ijro etilayotgan asar so'zlarining mazmuniga chuqur kirib borishi bo'lib, bu ularning talaffuzining mazmunliligiga erishishga imkon beradi.

Yaxshi diktsiyazni shakllantirish ko'p jihatdan qo'shiqda unli va undoshlarning to'g'ri talaffuzi bog'liq. Xor jamoasi bilan diktsiya ustida ishlayotganda, xor rahbari odatda qo'shiqchilarga undoshlarni iloji boricha aniqroq talaffuz qilishni o'rgatishga harakat qiladilar. Undoshlarning ravshanligi tinglovchilarga ijro etilayotgan asar so'zlarining ma'nosini tushunishga yordam beradi. Shu bilan birga, bolalar aniq talaffuz qilingan undosh avtomatik ravishda ovozni va undan keyingi unlini o'z ichiga olishini bilishlari kerak. Qo'shiq aytishda unli tovushlarning to'g'ri shakllanishiga ham e'tibor berish juda muhim. Darslarning boshidanoq xor ijrochilariga fonetik jihatdan aniqlangan talaffuzni o'rgatish kerak. Biroq, shu bilan birga, tembr bo'yicha ovozlarning bir xil sadolanishiga ham erishish lozim.

Bolalarga kuylashda so'zlar grammatika qoidalaridan farq qiluvchi tamoyilga ko'ra bo'g'inlarga bo'linishini, har bir vokal bo'g'ini tovushni cho'zish mumkin bo'lgan unli bilan tugashini tushuntirish kerak.

Undoshlarning talaffuzi har doim qo'shiqchilarning artikulyatsiya apparati faoliyatining kuchayishini talab qiladi. Biroq, qo'shiq aytishda diktsiyaga qo'yiladigan asosiy talab – bu so'zlar talaffuzining ma'noliligidir. Bu faqat vokal asarlarini ijroviy ifodaliligining asosi bo'lgan matn mazmuniga chuqur kirib borish orqali amalga oshishi mumkin. Kichik xor guruhidagi aniq talaffuz – bolalar nafasini faollashtirishning ayrim yo'llaridan biridir.

Xorda diktsion ravshanlikka erishish uchun xor asarining matnini musiqa ritmida ifodali o'qish, talaffuz qilish qiyin bo'lgan so'zlarni takrorlash va qayta ishlash kerak. Shuningdek, mashq sifatida turli tez aytishlarni kuylash ham foydalidir. Quyida "Sevinch" vokal ansambli rahbari S.Muzaffarovaning tez aytishlar hamda turli jumlalar qo'llanilgan bolalar xori uchun ovoz sozlash mashqlari keltiriladi. Mazkur mashqlar xorda diktsion ravshanlikka erishish uchun yordam beradi:

1)




2)




3)




4)




5)




**Kalit so'zlar va terminlar:** soprano, alt, tenor, bas, diskant, divizi, aralash xor, bir turdagi xor, mutatsiya, intonatsiya, xor partiyasi, ovoz apparati, diktsiya, zanjirli nafas, ansambl.

**Quyidagi o'quv vazifalarini bajaring**

1. Xor nima?
2. Xor ohangdoshlining asosiy unsurlarini ayting.
3. Qanday ovozlar xor partiyalarini tashkil etadi?
4. Diskant, alt partiyalarining umumiy va ishchi diapazonini aytib bering
5. Bolalar xorini tavsiflang
6. Mutatsiya nima va u qaysi yoshda kuzatiladi?
7. Diskant ovozini tavsiflang
8. Xor asarlarini ijro etishda kuylash talaffuzining xarakteri, uning ahamiyati haqida aytib bering.
9. Xor sozi ustida ishlash va xorda ansamblga erishishdan maqsad nima?
10. Turli xil ovoz y`onalishi ko'nikmalarini shakllantiradigan xor mashqlari majmuasini tuzing
11. Bayram tadbirlarda ijro etish mumkin bo'lgan o'rta yoshdagi bolalar xori uchun yaratilgan uchta xor asarini tanlang. O'z tanovingizni asoslab bering.
12. Daftarga turli talaffuzga mos tez aytishlardan namunalar yozing va amaliy mashg`ulotda boshqa talabalar bilan birgalikda ularni o'rganish uchun xor mashg'ulotining bir qismini o'tkazing.

## III bob
## XOR JAMOALARI BILAN ISHLASHDA REPERTUARNI SHAKLLANTIRISH UCHUN NOTA ILOVASI

### BOYCHECHAK
(Bolalar xori uchun)

Shermat Yormatov qayta ishlagan




30
bo- la, bo- la, bo- la, bo- la, boy-che-chak Boy - che - chak.
37
mf
Boy-che-chak-ni tut - di-lar sim yo-g'och-ga os - di-lar boy-che-chak-ni tut-di-lar
che chak, che chak, che chak, che chak, che chak, che
43
sim yo-g'och-ga os - di-lar qi-lich bi-lan chop-di-lar, bax-mal bi-lan yop-di-lar.
p
chak, che chak, Boy - che - cha - gim.
49
f
ff
p
Qat-tiq yer-dan qa-zi-lab chiq-qan boy-che-chak yum-shoq yer-dan yu-ma-lab chiq-qan
55
pp
boy - che-chak bo- la, bo- la, bo- la, bo- la, bo- la, bo- la, bo- la, bo- la,
59
boy-che-chak. Boy - che - chak. (Qarsak chalinadi) che-chak.

# Tinchlik bo'lsin

H. Ahmedova she'ri

Xurshida Hasanova musiqasi

**Tez**




16
Qal-dir - g'och - lar qa-no - ti - da, dun - yo-ga baxt o-lib kel - sin.
20
Tur - na - lar - ning ba - yo - ti - da, tinch-lik bo'l - sin,
23
tinch-lik bo'l - sin.
Tinch-lik bo'l - sin,
Bo - la - lar - ning


26
tinch - lik bo'l - sin, tinch-lik bo'l - sin bu dun - yo - da.
bax - ti u - chun, tinch-lik bo'l - sin bu dun - yo - da.
29
Tinch-lik bo'l - sin bu dun - yo - da
33
O-lam to'l - sin o-bod bo'l - sin, ke-la - jak u - mid - lar ha -




1. Ko'kni bulut qoplamasin,
Quyosh kulsin, quyosh kulsin.
Biz istaymiz bu dunyoda,
Tinchlik bo'lsin, tinchlik bo'lsin.

Qaldirg'ochlar qanotida,
Dunyoga baxt olib kelsin.
Turnalarning bayotida,
Tinchlik bo'lsin, tinchlik bo'lsin.

Naqorat:
Tinchlik bo'lsin bu dunyoda,
Tinchlik bo'lsin bu dunyoda.
Bolalarning baxti uchun,
Tinchlik bo'lsin bu dunyoda.
Olam to'lsin, obod bo'lsin,
Kelajak umidlari haqqi
Tinchlik bo'lsin bu dunyoda.

2. Onajonim allasidan,
Yeru-osmon orom olsin.
Bog'imizga ho'p yarashar,
Hayot guli hech so'lmasin.

Qaldirg'ochlar qanotida,
Dunyoga baxt olib kelsin.
Turnalarning bayotida,
Tinchlik bo'lsin, tinchlik bo'lsin.

Naqorat:

# ВЕСЕННИЙ ПРИЗЫВ

Л. БЕТХОВЕН
(1770-1827)

Переложение для хора В. Вахромеева



# Yoshlik yo'llari chaman

Haydar Muhammad she'ri

K Kenjayev musiqasi




33
li tot - li xij-ro - ni dard - li, bo-g'u gul - sha - ni sir-li hay - rat -
40
li har qa - da - mi - da mo'-ji - za til - sim, til-sim - lar o - char o's-mir-
47
lik mard - lik
Yosh - lik yo'l - la - ri cha-man
54
Qo' - shiq - la - ring se - vib ay - ta - man
Yosh - lik or - zu - lar gu -


61
li. Ha - yol - lar - da gul - la - ring cha - man. Vaq - ti -
69
ni sev - gan yosh - li - gin as - rar ah - di - ni sev - gan yosh - li -
75
gin as - rar Yosh - lik ki - shi ning ke - la - jak bax - ti, Bax - ti -
81
ni sev - ga yosh - li - gin as - rar Yosh - lik yo'l - la -


88
ri cha - man. Qo'- shiq - la - ring se - vib ay - ta - man.... Yosh
95
lik or - zu - lar gu - li. Ha - yol - lar - da gul - la - ring cha-
103
man. Ha-
111
yol - lar - da gul - la - ring cha - man.

# Bulbul kelib sayrasin

Xalq so'zi
B.Umidjonov musiqasi



# Ruboiy

(Jo'rsiz ayollar xori uchun)

X. Dehlaviy g'azali
B. Umidjonov musiqasi



# Galdir

(O'zbek xalq qo'shig'i)

**Andante**

Q.Mamirov xor uchun qayta ishlagan







8
-kuy -du- ra- san?
ga -ning qa- ni?
Har za-mon - da bir qa-rab,
Men yo-mon - dan ay-ri-lib
p
Har za-mon - da
Men yo-mon - dan
Har za-mon - da bir qa-rab,
Men yo-mon - dan ay-ri-lib
Har za-mon - da
Men yo-mon - dan


12
mf
voh be - a - jal
Yax-shi - ni top -
o'l - di - ra-san
ga -ning qa - ni?
Voh be - a -jal
Yax-shi - ni top - -
M -
Voh be - a -jal
Yax-shi - ni top - -
voh be - a - jal
Yax-shi - ni top -
o'l - di - ra-san
ga -ning qa - ni?
Voh be - a -jal
Yax-shi - ni top - -
M -
Voh be - a -jal
Yax-shi - ni top - -


15
f
-o'l - di - ra-san
ga - ning qa - ni?
Ko' - xi qof - dan ke - la - di,
Oh u - rar - man, oh u - rar -
-o'l - di - ra-san
ga - ning qa - ni?
f
-o'l - di - ra-san
ga - ning qa - ni?
Ko' - xi qof - dan ke - la - di,
Oh u - rar - man, oh u - rar -
-o'l - di - ra-san
ga - ning qa - ni?


18
ff
Shar- sha - ra- ning
man oh - la - rim
o - vo - za - si.
tut -gay se - ni.
Ko' - xi qof -
Oh u - rar -
ff
Shar- sha - ra- ning
man oh - la - rim
o - vo - za - si.
tut -gay se - ni.
Ko' - xi qof -
Oh u - rar -


21
p
-dan ke- la- di,
man, oh u -rar -
Shar- sha- ra- ning
man ch - la -rim
o- vo - za- si.
tut -gay se -ni.
p
p
Be - va- fo
Ko'z yo- shim
p
-dan ke- la- di,
man, oh u -rar -
Shar- sha- ra- ning
man ch - la -rim
o- vo - za- si.
tut -gay se -ni.
p
p
Be - va- fo
Ko'z yo- shim


25
mf
Be - va - fo
Ko'z yo- shim
bir yor u - chun
dar -yo bo' -lib
bo'l- dim ja - hon
ba - liq - la -ri
mf
bir
dar - -
yor u-chun,
- yo bo' -lib
mf
Be - va - fo
Ko'z yo- shim
bir yor u - chun,
dar -yo bo' -lib
bo'l- dim ja - hon
ba - liq - la -ri
mf
bir
dar - - -
yor u-chun,
yo bo' -lib




Bcqasam to'nlar kiyib buncha meni kuydurasan
Har zamonda bir qarab voh beajal o'ldurasan
Ko'hi qofdan keladi shasharaning ovozasi
Bevafo bir yor uchun bo'ldim jahon ovozasi

Oq ilon oppoq ilon oydinda yotganing qani?
Men yomondan ayrilib, yaxshini topganing qani?
Oh urarman, oh urarman ohlarim tutgay seni
Ko'z yoshim daryo bo'lib, baliqlari yutsin seni

# Duxtari sanam

(Shiru shakar)



# Xorazm navolari

(Xorazm xalq kuyi asosida)

N. Sharafiyeva xor uchun qayta ishlagan

**Andante con anima (shoshmasdan)**




14
1.
2.
mf
yo...
yo...
mf
yo...
yo... yo... yo... yo... yo...
19
cresc.
f yo...
yo...
yo...
Yo-ho, ho, bo'y, bo'y, bo'y
Yo-ho, ho, ho, ho, bo'y, bo'y, bo'y
22
yo...
f
yo... yo...
Yo-ho, ho, ho, bo'y, bo'y, bo'y
Yo-ho, ho, bo'y, bo'y, bo'y
Yo-ho, ho, ho, bo'y, bo'y, bo'y


Allegro (жонли)
25
cresc. molto
f sub p f sub p
Yor, Yo-ho, ho, Yor, Yo-ho, ho.
31
1. f
2. p
Lap, da du-pa-la dup-pa-la du-pong lap, da du-pa-la dup-pa-la du-pong Yor,
Lap, lap, du - pong lap, lap. Yor,
36
sub p f sub p p cresc.
Yo-ho, ho, Yor, Yo-ho, ho. Yo-ho, yo-ho yo-ho ho, Yo-ho, yo-ho


poco a poco accel.
42
yo-ho ho, yo-ho, yo-ho yo-ho, yo-ho Lap, da du-pa-la
yo-ho ho, yo-ho, yo-ho yo-ho, yo-ho yo-ho, yo-ho yo-ho, yo-ho Yor,
yo-ho ho, yo-ho, yo-ho yo-ho, yo-ho yo-ho, yo-ho yo-ho, yo-ho Lap, da du-pa-la
48
dup-pa-la du-pong lap, da du-pa-la dup-pa-la du-pong Ho!
bo'y, bo'y, bo'y, yor, bo'y, bo'y, bo'y, yo-ho, yo-ho yo-ho, yo-ho
dup-pa-la du-pong lap, da du-pa-la dup-pa-la du-pong yo-ho, yo-ho yo-ho, yo-ho
53
yo-ho, yo-ho yo-ho, yo-ho Ho!
yo-ho, yo-ho yo-ho, yo-ho Ho! Dup - po - tak!

# Гөзум душди

Муз. В. Ахмедова




18
Постепенно
ан гул-лер
Бос-та-на гө-зум душ-ди
Жа - на - на гө-зум душ-ди Бос та-на гө-зум душ-ди
Бос-та-на гө-
24
замедляя
В темпе
Жа - на - на гө-зум душ-ди бос-та на-гө-зум душ-ди жан!
Жа - на-на гө-
зум душ-ди
30
гө - йә мен хем бил -
зум душ-ди бос-та-на гө-зум душ-ди Жа - на - на гө-зум душ-ди бос-та-на гө-
гө - йә мен хем бир бил -


36
бил Жа - на - на гө - зум ,душ-ди бос-та-на гө - зум душ-ди
зум душ-ди жан! Жа - на - на гө -
бил, әй, же - нет э - ра бир гул риз - ва -
42
f
Әй, гөз-ле - ри Ах- ра - мы
зум душ-ди бос-та - на гө - зум душ-ди
на гө - зум душ - ди Әй, гөз-ле - ри Ах- ра - мы
49
гел гөр-ге - ли, я - ра - мы Әй, көн-лум - ни а - ра - мы
гел гөр-ге - ли Әй, көн-лум - ни а - ра - мы


57
mf
Немного оживленнее
mp
мес-та - на гө - зум душ - ди Жа - на - на гө - зум душ - ди
65
Первый темп
Бу дер-ди мен сен дер-ман көйун-де бо-лам на-лан Маг-тым гу-лы дийр әй жан
p
(закр. ртом)
Әй, жан!
Маг-тым гу-лы дийр әй жан
Әй, жан!
71
жа - на - на гө - зум душ - ди жан!
Әй, жан! жан!
Маг - тым гу - лы дийр әй жан
Әй, жан!




## ДАМКЎЛ-ДАМКЎЛ

(Эрон халқ кўшиғи)

М.Бурхонов
кайта ишлаган









Дам - кўл - чо си - ёх.
Дам - кўл, Дам - кўл, Дам - кўл, Дам - кўл, Дам - кўл - чо си - ёх.
Дам - кўл - чо си - ёх,
Дам - кўл, Дам - кўл,
Са - ре - за - ти - ю,


11
12
13
С воздух
Хо!

# Dembermes

Qoraqalpoq xalq qo'shig'i

B. Umidjonov qayta ishlagan







19
ku - sim - di, vesh bir jer - de tu - ra - rim jok. Xa - si-re - tin -
rim kel - se, ke - lip g'am - tin keu-lim al - sa. Sum ra - xip -
U.
ya - rim ho ja - nim ho,
26
ho, ho, ho, ho, ho,
o, o, ho, ho, ho, ho, ho, ho,
ho, ho, ho, ho, ho, ho,
o, o, ho, ho, ho, ho, ho, ho,
37
1.Tu ra-rim jok, jok.
2.Qa - ra-rim jok, jok.
ho, ho, 1.Tu ra-rim jok, jok.
2.Qa - ra-rim jok, jok.
ho, ho, 1.Tu ra-rim jok, di-li-di-li bum, bum di-li-di-li bum, bum.
2.Qa - ra-rim jok,
ho. ho, 1.Tu ra-rim jok, Ho, ho, ho, ho.
2.Qa - ra-rim jok,

# Baxt nuri

B. Umidjonov musiqasi
N. Ayrumova qayta ishlagan

Xalq so'zi






## *ГУЛЕ ГАНДУМ*

(Эрон халқ қўшиғи)

М.Бурхонов қайта ишлаган







12
дум, ёр,
Гӯ-ле тан - дум, ёр,
Гӯ-ле тан - дум, ёр,
pp Гӯ-ле тан - гӯ-ле ёр,
(оғизни юмиб)
ёр,
18
дум шӯ-хуф - те.
гӯ - ле ёр,
Гӯ - ле тан - дум шӯ-хуф - те
Ҳо!
ёр.
Гӯ - ле тан - дум шӯ-хуф - те
23
Гӯ - ле тан - дум, ёр,
Ҳо!
pp dolce
Гӯ - ле тан - дум, ёр,
Гӯ - ле ёр,
гӯ - ле ёр,
ёр,
ёр,
(оғизни юмиб)
29
гӯ - ле ёр,
гӯ - ле ёр,
Гӯ - ле тан - дум шӯ-хуф - те
Гӯ - ле ёр,
гӯ - ле ёр,
гӯ - ле тан -
ёр,
ёр.
Ҳо!
ёр,
ёр.


Adagio
con dolcezza
Solo
Allegretto
дум шу-куф - те
Гу-ле ган - дум, ёр.
Хо!
Гу-ле ган - дум шу-куф-те хо!
(оғизни юмиб)
гу-ле ган дум,
гу-ле ё- рам
Гу - ле ёр,
гу - ле ёр,
Гу - ле ган -
гу - ле ган - дум шу - куф - те
Гу - ле ган - дум шу-куф-те хо!


59
дум, ёр.
pp Гу - ле ган - дум, ёр.
(оғизни юмиб)
p
(оғизни юмиб)
pp Гу - ле ган - дум, ёр.
(закр. ртом)
pp sempre
Бум ба - ка бум, бум ба - ка бак,
64
Solo p
Ми-ко-ран хам - чи - ну хам - чун, гу - ле ган - дум, гу - ле ган - дум, гў - ле ган -
бум ба - ка бум, бум ба - ка бум, бум ба - ка бак, бум ба - ка бак, бум ба - ка бум,
69
Solo + S
f sempre
дум ёр.
Ми-чи-нан хам-чи-нў хам - чўн, гў-ле ган - дўм, гў-ле ган - дўм, гў-ле ган - дўм, ёр.
бум ба - ка - бак. хо!
Гў-ле ган - дўм, ёр.
f sempre
Ми-чи-нан хам-чи-ну хам - чўн, гу-ле ган - дўм, гу-ле ган - дўм, гў-ле ган - дўм, ёр.
бум ба - ка бак. Хо!
Гў-ле ган - дум, ёр.
76
p
Гў-ле ган - дўм, ёр.
Alt + Solo
mf
Гў-ле ган - дўм, ёр.
pp
Гў-ле ган - дўм, ёр
(оғизни юмиб)
mp
(оғизни юмиб)
ppp
mp
(оғизни юмиб)


82
mf
pp
mf
ff
Гу-ле ган - дум, ёр. Ба-хор, ба-хор о - мад!!
Ба-хор о - мад!!
Ба-хор, ба-хор о - мад!!
ба-хор о - мад!!
f
о - мад!!
attacca

# O'ZBEKISTONIM

E. Vohidov she'ri

A. Rasulov musiqasi

Xor uchun S.Muzafarova moslashtirgan

**Allegretto**




21
Ko' - cha-ga yu-gur - gan bo-la sin - ga - ri Men ham qo'l - ga
26
o-lib si - biz - g'a so - zim To' ying-ga sho - shar-man
31
el-dan il - ga - ri.
S.
A.
Ti-lak shu qo' - shi-g'im kat - ta bay ram - ga
T.
B.


36
Ye-tib bor - sa kı-chik to' - yo-na bo'- lib
41
Me-ning ham qol - mas-di dil - da ar-mo nim O'l-kam o - na
46
jo-nim, yu-ra-gim, jo - nim


51
O'z - be - kis - to - nim, O'z - be - kis - to - nim
56
O'l kam, o-na jo - nim, yu-ra gim, jo - nim O'z-be-kis -
62
to - nim, O'z - be - kis - to - nim Bu-yuk - lar




Yiroqdan eshitib surnay ovozin
Ko'chaga yugurgan bola singari
Men ham qo'lga olib sibizg'a sozim
To'yingga shosharman eldan ilgari.

Tilak shu, qo'shig'im katta bayramga
Yetib borsa kichik to'yona bo'lib.
Mening ham qolmasdi dilda armonim.
O'lkam, onajonim, yuragim, jonim.

Vaxshat vodiysida kechdi asrlar
Aljabr ustodin tuqquncha yering.
Ilming yuksalguncha Beruniy qadar,
To Alisher qadar yetguncha she'ring.

Hayratga soluvchi fan olamini
Farg'oniy chiqargan aniq hisoblar,
Taralding Alqonun, Saydona bo'lib
Buyuklar tan bergan buyuk dostonim.

**Naqorat**

O'zbekistonim, O'zbekistonim,
O'lkam, onajonim, yuragim, jonim.
O'zbekistonim, O'zbekistonim,
Buyuklar tan bergan buyuk dostonim.

# Весна

Музыка Э.Грига
Обработка для детского хора
Вл. Соколова

**Andante espressivo (Не спеша, выразительно)**







9
p
та - ми по-кры-ла,
ла меж цве-та-ми.
1.Сгор по-бе-жа-ли жур
2.Воз - дух весь по-лон ды
